

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIYATSHUNOSLIK FAKULTETI.

TIBBIY BILIM ASOSLARI KAFEDRASI

**“DORISHUNOSLIK”
fanidan ma’ruzalar matni**

Navoiy

MAVZU 1. Dorishunoslik haqida ma'lumot. Dorixonalar ularning turlari. Lotin alifbosi, uning elementlari.

Reja:

- 1. Dorishunoslik fanining rivojlanishi.**
- 2. Dorixonalar ularning turlari.**
- 3. Lotin alifbosi va uning elementlari.**
- 4. Retsept yozish qoidalari.**

Dars jihozi:

Plakat. Retsept blankalari.

Adabiyotlar:

- 1.S. Adizova "Farmakologiya" Toshkent
- 2.R.Ramazonova, H. Sodiqova "Favqulotda vaziyatlar uchun tibbiy hamshiralar tayyorlash" Toshkent 2006.
3. Ramazonova R.A, Yu.G.Semena. "Meditsina hamshiralari o'quv qo'llanmasi. T-85
4. N.Yu.Paleyev. "Meditsina hamshiralari spravochnigi" T-85.

Dorishunoslik- organizmga yuborilganda shifobaxsh ta'sir ko'rsatadigan yoki kasalliklarning oldini olishga yordam beradigan dori moddalar haqida fan.

Tibbiyotda ishlatiladigan dorilar (preparatlar) juda xilma xil va juda ko'p. Ular turli yo'l va usullar bilan o'simliklardan, mineral xom ashyo va hayvonlarning turli to'qimalarini qayta ishlab, suniy usulda –ximiyaviy sintez yo'li bilan hamda ba'zi mikroblarning hayot faoliyati natijasida hosil bo'ladigan moddalardan olinadi. Minerallardan olinadigan dori moddalarga vazilin, chortoq tuzi, natriy xlorid, ixtiol, fenol, uning hosilalari va boshqalar kiradi. Adrenalin, insulin kabi endokrin preparatlar organizmning ichki sekretiya bezlaridan olinadi va hayvonlardan olinadigan dori moddalardan hisoblanadi. Ba'zi mikroorganizmlar hayot faoliyatida hosil bo'ladigan dori moddalarga antibiotiklar (penitsillin, streptomitsin va hokazolar)ni misol qilib ko'rsatish mumkin. O'simliklardan olinadigan dori moddalar ularning turli qismlari (ildizi, po'stlog'i, bargi, guli va hokazolari)da bo'ladi. Ximiyaviy sintez yo'li bilan olinadigan dori moddalar boshqa gruppalaridagi dori moddalarga qaraganda juda ko'p.

Yuqorida aytilgan xomashyo turlari ko'pincha maxsus ishlovdan o'tkaziladi. Bunda hosil bo'ladigan moddalar *preparatlar* (yoki *medikamentlar*) deb ataladi.

Dorining shakli

maxsus ishlab, bemorga berish uchun qulay holga keltirilgan bir yoki bir necha dori moddalardan iborat.

O'simlik xom ashyosidan ta'sir etuvchi moddalarni ajratib olish va ularni yot (ballast) moddalardan qisman tozalash maqsadida murakkab ishlov berish yo'li bilan galen preparatlari (rim vrachi Galen sharafiga shunday nom berilgan), masalan, nastoykalar, ekstraktlar, spirt olinadi. Neogolin preparatlar yanada toza bo'lib, tarkibidan ballast moddalar deyarli yo'q. Shuning uchun ular faqat ichilmay, in'eksiya ham qilinadi (masalan, adonizid, landozid, gitalen va boshqalar).

Dorixona- dori tayyorlash, uni saqlash va bemorlarga yoki davolash muassasalariga tarqatish bilan shug'ullanadigan farmatevtika muassasasi. Dorixonada quyidagi ishlar bajariladi:

1. Vrach resepti bo'yicha dori tayyorlab beriladi. Bundan tashqar retseptsiz beriladigan dori, sanitariya-gigiyena va bemorlarni parvarish qilish buyumlari, mineral suvlar, dezinfeksiya va dezinseksiya vositalari, bog'lash materiallari, ko'zoynaklar, xirurgiya asboblari va boshqa meditsina buyumlari ham sotiladi.

2. Aholi o'rtasida sanitariya-gigiyena bilimni keng targ'ib qilish va dori darmonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommalashtirish bilan shug'ullanadi.

Dorixonalar 2 asosiy tipga bo'linadi.

1. Yopiq tipdagi yoki kasalxonalar va boshqa davolash muassasalari qoshidagi dorixonalar. Ularda shu davolash muassasasida davolanayotgan bemorlar uchun vrach yozib bergan retsept bo'yicha dori tayyorlanadi hamda bu muassasalar barcha meditsina anjomlari bilan ta'minlab turiladi.

2. Ochiq yoki xo'jalik hisobotidagi dorixonalar. Ularda aholiga vrach retsepti bo'yicha dori tayyorlab beriladi va retseptsiz turli dori darmonlar hamda meditsina buyumlari sotiladi (ochiq savdo yo'li bilan).

Kasalxona va poliklinikalar qoshida aholini dori-darmon, sanitariya-gigiyena buyumlari bilan ta'minlovchi dorixona punkti tashkil etiladi. Bundan tashqari, ko'chma-kolxoz va uy dorixonalari ham mavjud. Ularda faqat birinchi meditsina yordami ko'rsatish uchun zarur materiallar bo'ladi.

Yirik dorixonalarda quyidagi xonalar ajratiladi: 1) qabulxona (kutish va retseptura xonalari). Bu yerda retsept qabul qilinadi va tayyor dorilar beriladi hamda sanitariya-gigiyena va tayyor dori darmonlar sotiladi; 2) assistentlar xonasi. Bu xonada dori tayyorlanadi; 3) ortiqcha medikament va materiallar saqlanadigan xona; 4) koktoriy. Bu yerda damlama va qaynatmalar tayyorlanadi, distillangan suv olinadi va in'yeksiya qilinadigan dorilar sterillanadi; 5) yuvish kontrol tekshirish xonasi; 6) ma'muriyat uchun xona.

Dorixonalarining ish hajmi turlicha- ularda yiliga 15000 dan 35000 tagacha dori tayyorlanadi. Zaharli moddalar lotincha "Venera" deb atala va A spiskaga, kuchli ta'sir etadigan dorilar esa "Heroika" deb ataladi va B spiskaga kiradi. Ular boshqa dori-darmonlardan alohida "A" va "B" deb yozilgan metal yashiklarda yoki seyflarda qulflog'lik holda saqlanadi.

Tarkibida zaharli va kuchli ta'sir etadigan moddalar bo'lgan dorilar bitta retsept bo'yicha faqat bir marta beriladi. Ularni qayta olishi uchun vrach yana yangi retsept yozib berishi kerak.

Zaharli moddalarga: Strixnin, misg'yak, opiy, morfin, strofantin va boshqalar, kuchli ta'sir etadigan moddalarga veronal, lyuminal, nitroglitsirin, kofein va hokazolar kiradi. Bu moddalarning to'liq ro'yxati farmakopiyada keltirilgan (grekcha-pharmakon- dori va poieo- yasayman so'zlaridan olingan).

Farmakopiya qonun xarakteriga ega bo'lib, hamda dorixonalar uchun majburiy rasmiy qo'llanmadir.

Farmakopiyaning asosiy vazifasi yagona usulda dori tayyorlashni amalga oshirish va dorilar sifatini aniqlashning bir xil norma va metodlarini tatbiq qilishdan iborat. Unda ko'rsatiladigan dori moddalar, preparatlar va dori shakllari *ofisional* (officina- dorixona) deb yuritiladi.

Dorixonaga qabul qilingan retseptdagi zaharli va kuchli ta'sir etadigan moddalar dozasi, yozilgan dorilarning o'zaro mutanosibligi Davlat Farmakopiyasi bo'yicha tekshiriladi, bahosi qo'yiladi, nomerlanadi. So'ng shu retsept bo'yicha dori tayyorlanadi. Tayyor dori berilayotgan bemorga retsept ham qaytariladi. Faqat zaharli va ba'zi kuchli ta'sir etadigan dorilar retsepti dorixonada saqlanadi. Bunday dorilarning ichiladiganlari oq rangli, sirtga ishlatiladiganlari- sariq yoki qizil, in'yeksiya qilinadiganlar- rangli etiketka bilan beriladi.

Hamshira dorixonadan dori olib kelgach, ularni maxsusshkafda saqlaydi. Surtiladigan va ichiladigan dorilar alohida-alohida saqlanadi. Venaga, muskullar orasiga va teri ostiga yuboriladigan dorilar qulflog'lik holda alohida saqlanadi.

Eng ko'p ishlatiladigan dorilarni bog'lash (perevyazka qilish), operatsiya va operatsiya oldi xonalarida hamda klinik laboratoriyalarda saqlash mumkin.

Hamshira bemorga dori berishdan oldin quyidagilarni bajarishi lozim: 1) berilayotgan dori kasallik varaqasida vrach tomonidan tayin qilinganiga muvofiqligini tekshirishi; 2) in'yeksiya qilinadigan dorilarni vrachga berishdan oldin idish sirtidagi yozuvning va idishdagi moddaning tashqi ko'rinishi tayin qilingan doriga muvofiqligini tekshirishi kerak. Kiyin vrach ham xuddi shunday tekshirib ko'radi.

Odatda, dorilar etiketkasida va ular solingan idishlar sirtida qabul qilish tartibi va yaroqlilik muddati ko'rsatilgan bo'ladi. Bemorga dori berishda oldin uning yaroqlilik muddati o'tib ketmaganligiga ishonch hosil qilish lozim. Rangi o'zgargan yoki cho'kma paydo bo'lgan dorilarni bemorga berish mumkin emas. Anglashilmovchilik bo'lmasligi uchun, hatto bir xil nomlangan dorilarni ham, bir idishdan ikkinchisiga qo'yish yoki tabletka va parashoklarni bir paketdan olib ikkinchisiga solish mumkin emas.

Lotin imlosining elementlari.

Retseptlar lotin tilida yoziladi. Ularni o'qish va yozib berish uchun hamshira lotin imlosini, lotin harflari va bo'g'inlarining talaffuzi hamda ko'p ishlatiladigan dorilarning lotincha nomlarini bilishi kerak.

Lotin alfaviti 24 harfdan iborat. Ulardan 6 tasi (a, e, o, i, u, y) unli qolganlari undosh.

Ba'zi lotin so'zlari va bo'g'inlarining talaffuzi.

"C" harfi e, i, y, ae, ae oldida kelganda ruscha «ц» deb talaffuz qilinadi. Masalan, cito (tez) cetara (mumlangan). Boshqa harflar oldida kelganida ruscha «к» deb talaffuz qilinadi. Masalan, calcium (kalsium)-kalsiy, camphora-kamfora, capsula-kapsula, coffeinum-kofein.

"S" harfi unli harflar o'rtasida kelsa ruscha «з» deb talaffuz qilinadi. Masalan, saccharinum-saxarin.

"N" harfi undoshlardan so'ng kelganda talaffuz qilinmaydi. Masalan, mentholium (mentolum)-mentol, aethar- (eter)-efir. "K" harfi lotin tilida kam qo'llaniladi. Masalan kalium (kalium)-kaliy, kokodilicium (kokodilikum)-kokodil. "Ae" va "Oe" ruscha "Э" deb talaffuz qilinadi. Masalan, tabulettae (tablette-tabletka, foeniculum (fenikulum)-ukrop.

Agar «e» harfi ustida ikki nuqta bo'lsa aë,oë bo'g'inlari alohida talaffuz qilinadi. Masalan, aër (aэр)-havo, aloë(алоэ)-aloy.

«ai»va «ei» bo'g'inlari ruscha «ay»va «эу»deb eshital-eshitilmas «в» tovushiga monand ravishda talaffuz qilinadi. Masalan, aurum (аурум)-oltin, pneumonia (пнеумония)-o'pka shamollashi. «Ph» ruscha «ф»deb talaffuz qilinadi. Masalan, phenacetinum (фенацетинум)-fenasetin, morphinum (морфинум)-morfin, “ch” ruscha «х»deb talaffuz qilinadi. Masalan, strichninum (стрихнинум)-strixnin, chamomilla хамомилла-gazak o't “sh” ruscha «ш» deb talaffuz qilinadi. Masalan, Moschys (moshus)-muskul, “gu” unlilar oldida kelganda ruscha «гв» deb talaffuz qilinadi. Masalan, unguentum (ungventum)-maz, lingua (lingva)- til, “qu” unlilar oldida kelganda, ruscha «кв» deb talaffuz qilinadi, masalan, aqua (akva)-suv, “ti” unlilar oldida kelganda ruscha «ци» deb talaffuz qilinadi, masalan solutio (solyutsio)-eritma, injestio (inyeksio)-inyeksiya, ukol.

Agar “ti” oldida “s” yoki “x”harfi tursa va “ti”dan so'ng undosh harfi kelsa, bu bo'g'in ruscha «ти»kabi o'qiladi, masalan, ostium (ostium)-teshik, mixtio (mikstio)- aralashtirish, bronchitis (bronxitis)-bronxit.

“Z” harfi so'z boshida kelsa, ruscha «ц» so'z o'rtasida esa «з» deb talaffuz qilinadi. Masalan, zincum (цинкум)-рух, benzolum (бензолум)- benzol.

Lotin alfabiti

Harflarning ifodalanishi		Nomi	talaffuzi
yozma	bosma		
<i>Aa</i>	Aa	А	а
<i>Bb</i>	Bb	Ба	б
<i>Cc</i>	Cs	Цэ	ц.к
<i>Dd</i>	Dd	Дэ	д
<i>Ee</i>	Ee	Э	э
<i>Ff</i>	Ff	Эф	ф
<i>Gg</i>	Gg	Гэ	г (рус.)
<i>Hh</i>	Hh	аш(га,ха)	г (укр)
<i>Ij (J)</i>	Ij (J)	и(йота)	и(й)
<i>Kk</i>	Kk	ка	к
<i>Ll</i>	Ll	эль	лъ
<i>Mm</i>	Mm	эм	м
<i>Nn</i>	Nn	эн	н
<i>Oo</i>	Oo	о	о
<i>Pp</i>	Pp	пч	п
<i>Qq</i>	Qq	ку	к
<i>Rr</i>	Rr	эр	р
<i>Ss</i>	Ss	эс	сэ
<i>Tt</i>	Tt	тэ	т
<i>Uu</i>	Uu	у	у
<i>Vv</i>	Vv	вэ	в
<i>Xx</i>	Xx	икс	кс
<i>Yy</i>	Yy	игрек	и
<i>Zz</i>	Zz	зет	з(ц)

Lotin tilida urg'u sosan oxirigidan oldingi bo'g'inga qo'yiladi. Masalan, aspirinum, chininum, strichninum.

Unli harflar oldida “i” o’rniga “Ij” qo’yilib, ruscha «й» harfi kabi talaffuz qilinadi va u o’zidan keyin keladigan unli harfni bir oz yumshatadi. Masalan, iodum (йодум)- yod, iecur (йекур)-jigar.

“Y” ruscha “и” harfi kabi talaffuz qilinadi va ba’zi so’zlarda “i” harfi o’rnida qo’llaniladi. Masalan, mixtio (mikstio)-aralashtirmoq, xeroformium (kseroformium, nux (nuks)-yong’oq.

Lotin tili imlosi unchalik qiyin emas.

1. Ishlatiladigan dorilar “Hh” harfi bilan boshlanib undan so’ng «и» tovushi keladigan bo’lsa, «y» harfi orqali yoziladi: hyoscyamus, hydrochloridum va boshqalar. Bundan istesno hollar ham uchraydi: herudenas (zuluk) va hokazo.

2. “il” qo’shimchasi bilan tugaydigan so’zlarda ham «y» yoziladi. Bunday holda “y” harfi oldida “t” harfi bo’lsa, u “th” orqali yoziladi: aethyl, phenyl, acetyl va hokazo.

3. Preparatlar nomida “pir”, “gid” yoki “poli” bo’g’inlari bo’lsa, ko’p hollarda “y” harfi qo’llaniladi: pyramidonum, pyrogallolum, hydrargirum, angrium, polysulfuratum va boshqalar, “pir” bo’g’ini oldida “s” harfi kelsa, oddiy “i” harfi yoziladi: spiritus, aspirinum.

4. “tio” bo’g’ini birikma tarkibida oltingugurt borligini ko’rsatadi va “thio” orqali yoziladi: thiolum, thiocolum va boshqalar.

5. tarkibida “forum” va “sulf” bo’g’ini bo’lgan hamma nomlar “f” harfi bilan “form” “sulf” deb yoziladi: sulfuratus, chloroformium.

Retseptda ko’rsatiladigan dorilar qaratqich kelishigida yoziladi. Sguning uchun lotin so’zlarining qaratqich kelishigidagi qo’shimchalarini bilish lozim. So’zning qaysi turlanishga kirishiga qarab bu qo’shimchalar turlicha bo’ladi.

Lotin tilida 5 xil turlanish mavjud. Dorilar nomining ko’pchiligi 2 va 1- turlanishga kiradi. 3-turlanish kamroq, 4-5 turlanish juda kam uchraydi.

Birinchi turlanishga “a” bilan tugaydigan otlar (tingtura, belladonna, mengha) kiradi. Qaratqich kelishigining sonida bu otlar “ae” bilan tugaydi (tincturae, belladonnae, menthae).

Ikkinchi turlanishga “us” bilan (hyoscyamus, numerus) kamroq hollarda “er” bilan tugaydigan otlar hamda “um” bilan tugaydigan (oleum, acidum, linimentum, infusum) otlar kiradi. Ular qaratqich kelishigining birlik sonida “i” qoshimcha bilan tugaydi (boeus)- loy so’zi bundan mustasno.

Uchinchi kelishikning birlik sonida turlicha qo’shimchalar bilan tugaydigan, qaratqich kelishigining birlik sonida “is” bilan tugaydigan otlar kiradi.

Masalan, cabro, onis (f) flos, oris (m) pulvis, eris (m) sulfur, is (n) va boshqalar.

Beshinchi turlanishga bosh kelishikning birlik sonida “es” bilan, qaratqich kelishigida esa “ei” bilan tugaydigan otlar kiradi, masalan, species. Ba’zi so’zlarturlanmaydi, masalan, gummi. Cacao, salep va boshqalar.

Retsept, uning ahamiyati, shakli

etsept (lotincha- receptum-olingan, olinadigan demakdir)-dori tayyorlash to’g’risida, uni qanday ishlatish kerakligini bemorga tushuntirib berish haqida vrachning dorixonaga qilgan yozma murojaati. Retsept muhim hujjat bo’lib, undan davolovchi vrach, dori tayyorlovchi dorixona va dorini ishlatadigan bemor foydalanadi. retsept tibbiyot bilan birga yuridik, texnik va xo’jalik ahamiyatiga ham ega. Dorixonalarining to’g’ri tayyorlanganini tekshirishda retsept asosiy hujjat hisoblanadi. Shuning uchun u yuridik hujjatlarga qo’yiladigan talablarga javob berishi kerak. Retseptda qaysi dori moddalardan olish va ularni qanday shaklga keltirish haqida texnik ko’rsatmalar bo’ladi. Ishlatiladigan medikamentlar va yordamchi materiallarni xarajatlarga qo’shishda retsept xo’jalik ahamiyatga ega bo’lib, uxarajatlarni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Tarkibida narkotik moddalar (morfin, apnopen, opiy, promedol, fenadon, fenamin, kakain va boshqalar) bo’lgan dorilar retseptidori shaklining turidan qat’iy nazar, maxsus blankalarda yoziladi. Tarkibida A gruppaga kiradigan zaharli moddalar bo’lgan dorilar retseptida davolash muassasasining yumaloq yoki uchburchak muhri bo’lishi lozim. Retseptga tuzatish kiritish (ayniqsa zaharli va kuchli ta’sir etadigan moddalar yozilganda) mumkin emas.

Retsept boshida bemorning familiyasi va yoshi (bolalar va yoshi 60dan oshgan odamlar uchun) retsept yozilgan vaqt (kun, oy, yil), vrachning familiyasi ko’rsatiladi. Bundan keyin farmasevtga Recepe- ol degan so’z bilan murojaat qilinadi. U qisqacha “Rp” harflari bilan belgilanadi.

“Recipe” so’zidan keyin retseptga kiradigan dori moddalarning nomi qaratqich kelishigida, miqdori (gramlar yoki uning bo’laklarida) yoki konsentratsiya (protsentlarda, nisbatlar shaklida yoki miqdor og’irligida) birma-bir sanab o’tiladi.

Retseptda bir necha dori moddalar bo’lsa, avval asosiy ta’sir ko’rsatuvchi modda, keyin qo’shimchamoddalar, ta’mi hidi, rangini yaxshilovchi moddalar va oxirida shakl beruvchi moddalar yoziladi. Bu yozuvdan so’ng dorini qanday tayyorlash ko’rsatiladi. Retseptning bu qismi asosan “Misce” (qisqacha- “M”- “aralashtirish”) so’zi bilan boshlanadi.

Retsept oxirida bemorga dorini ichish usuli haqida rus tilida yoki shu yerda qabul qilingan tilda ko'rsatma beriladi. U lotincha "signa" (qisqacha-S)- "tayinla" so'zi bilan boshlanadi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi: 1) dozasi 1) poroshokdan, tabletkadan, bir osh qoshig'idan, 20 tomchidan va hokazo); 2) dorini qay vaqtda va necha marta ichish (kuniga necha marta ovqatdan oldin yoki keyin, uxlashdan oldin va hokazo); 3) preparatning qo'llanish usulu (venaga, teri ostiga, asta-sekin yuborish va hokazo).

Retsept oxiriga vrach imzo qo'yadi. Dori moddasining dozasi o'lchovning 10 lik sistemasida ko'rsatiladi. Og'irlik birligi qilib 1g olinadi. Retsepda u 1,0 deb belgilanadi. Ko'pgina dorilar gramming bo'laklarida beriladi: 0,1- bir detsigramm; 0,01- bir santigramm; 0,001- bir miligramm; 0,0001- bir detsimiligramm; 0,00001-bir santimiligramm; 0,000001- bir mikrogramm.

Dozasi ta'sir birligi (TB, ruscha- EД) bilan ifodalanadigan dori moddalarni yozganda retseptda og'irlik yoki hajm miqdori o'rniga TB miqdori ko'rsatiladi. Dori tarkibida tomchilab hisoblanadigan dori preparatlar bo'lsa "gtts" ("guttas"- tomchilar so'zining lotincha qisqartmasi) so'zini yozib, keyin tomchilar soni rim raqami bilan ifodalanadi. Masalan, gtts IV (to'rt tomchi).

Bir necha dori moddalar bir xil dozasi yoziladigan bi'lsa, ular dozasi faqat oxirgi moddaning nomidan so'ng "aa" ("ana" qisqacha "aa"-baravardan) so'zi qo'yiladi.

Retsept yozayotganda quyidagilarni bilish kerak: 1 osh qoshig'ida 15g, bir choy qoshig'ida 5g suv bo'ladi. 1g suv 20 tomchi. 1gspirt 40-60 tomchi.

Noto'g'ri yozilgan retsept uchun vrach shaxsan javobgar.

Bitta dori yozilgan retsept- oddiy ko'p dori yozilgan retsept murakkab retsept deyiladi.

Bitta retsept blankasiga tarkibida zaharli modda bor doridan faqat bitta, ba'zan ikkita yozish mumkin. Bitta blankaga ikkita

Retsept blankasining sxemasi

Davolash muassasasining
Shtampi

Bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yoshi

Yil, oy, kun. _____

Vrachning familiyasi, ismi va otasining ismi

Rp: _____

Taksirovka _____

Qilinadigan _____

Joy D.S. _____

p.o'. (pechat o'rni) Vrach imzosi _____

**Tarkibida narkotik moddalar bo'lgan dori olish huquqini
beradigan retsept blankasining sxemasi**

Davolash muassasasining
Shtampi

Bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yoshi

Yil, oy, kun _____

Vrachning familiyasi, ismi va otasining ismi

Rp: _____


Alohida _____ Dorixona

Hisobidagi _____

Hujjat D.S. _____ qoldiriladi

Kasallik tarixi № _____

Vrach _____
(aniq qilib)



Bosh vrach _____

Siyoh bilan to'ldiriladi.
Tuzatish kiritish mumkin emas.

Oddiy retsept namunasi :

Bemorning familiyasi va ismi

19 3/V 75

Vrachning familiyasi, ismi, otasining ismi

Rp: Norsulfasoli 0,5
D.t.d. № 24 in pulv.

S.2. poroshokdan har to'rt soatda ichilsin.

Murakkab retseptga misol:

Bemorning familiyasi ismi otasining ismi

19 3/V 75.

Vrachning familiyasi, ismi, otasining ismi

Rp. Phenorbabitali 0,03
 Diuretini 0,5
 Salsolini 0,003
 Bromurali 0,25
 M.f pulv. D.t.d. N 15

S.l. poroshokdan kuniga 3 marta ichilsin.

retsept yozilsa, ular bir-biridan # belgi bilan ajratiladi. Bemorga dorini takror berish lozim bo'lsa, vrach retseptning yuqorisiga (chap yoki o'ng tomoniga) "Reperatur" (bis, ter)- "takrorlanmasin" (ikki marta, uch marta deb yozib berishi mumkin). Dorini takror bermaslik kerak bo'lsa retseptga "Non reperatur" -deb yoziladi. Bemorga dorini tez tayorlab berish kerak bo'lganida, retseptning chap tomon yuqorisiga "Cito"- "tez!" "Citissimi"- "juda tez" yoki "Statum"- "darhol" deb yoziladi.

Farmakopiyada keltirilgan, ma'lum tarkibida va tibbiyot sanoatida ishlab chiqadigan dorilar *ofitsional* (officina- dorixona so'zidan) *preparatlar* deyiladi.

Vrach retsepti bo'yicha tayorlanadigan dorilar *magistral* (magister-o'quvchi, rahbar, ustoz so'zidan) *preparatlar* deyiladi.

Dori moddaning bir marta qabul qilinadigan miqdori uning bir martalik dozasi deb, sutkaga tayin qilingan miqdori esa sutkalik dozasi deb ataladi.

Zaharli va kuchli ta'sir etadigan dorilarning Davlat Farmakopiyasida keltirilgan dozalari 25 yoshga to'lgan odamlarga mo'ljallangan. Yoshi kichikroq odamlar uchun lozim bo'lgan dozalar shunga nisbatan olinadi. Masalan 18 yoshdagi bemorga kattalar uchun lozim bo'lgan dozaning 3/4 qismi, bir yoshgacha bo'lgan bolalarga 1/24 qismi tayin qilinadi. yoshi 60 dan oshgan bemorlar uchun dozasi 1/3-1/2 baravar kamroq qilib olinadi. Ba'zi dorilar bolalarning 1kg og'irligiga nisbatan tayinlanadi. Sul'fanilamid preparatlar va antibiotiklar dozasi ham shu usulda belgilanadi.

Dori yozishda retsepda qisqartmalar qilishga ruxsat etiladi. Lekin qisqartirishda so'zning ma'nosiga e'tibor berish zarur. Agar so'zda ikkita undosh harf bo'lsa, qisqartma ikkinchi undosh so'zda tamom bo'ladi. Retseptda ba'zi bir so'zlarni 1-2 ta harfga qisqartirish mumkin.

Retsepturada quyidagi lotincha so'zlar va ularning qisqartmalari ko' ishlatiladi

Recipe	Rp	Ol	Pulvis	Pulv	poroshok
Ana	Aa	Baravardan	Repete	Rep	qaytar
Da	D	Ber	Tabuletta	Tab	tabletk
Tales	T	Shunday	Unguentum	Ung	malham, maz
Doses	D	Doza	Linimentum	Linum	suyuq mazlar
Da tales doses	Dtd	Shunday doza	Suppositrium	Suppos	suppozitoriy
Misce	M	Aralashtir			shamcha
Pilula	Pil	Pilyulya	Signa	S	ko'rsat, tayinla
Fiat	F	Qilinsin	Gutta	Gtt	tomchi
Ft fiat	Utf	Hosil bo'lsin	Misce da signa	MDS	aralashtir, ber
Numero	N	Soni			va tayinla
Dicoctum	Des	Qaynatma	Quantum satis	QS	keragicha
Extractum	Ext	Ekstrakt	Infusum	Inf	damlama
Folium	Fol	Yaproq	Tinctura	T-ra	nastoyka
Aqua	Aq	Suv	Radix	Rad	ildiz
			sigior	Lig	eritma

Oddiy va murakkab retseptlarni o'qib va yozib mashq qilish

Rp; T-rae strychnini nitratis 10,0
 D.S. ovqat oldidan uniga 3 marta
 5 tomchidan ichiladi

	#
Rp: Inf. Herbae Adonidis vernalis	2,0-200,0
	#
Rp; Acidi hydrochloridi puri deluti	6,0
Aquae destillatae	200,0

D. S 5 yoshlik bolaga 1choy qoshiqdan ovqat vaqtida ichiladi.

Rp: Codeini phosphatis	
Natrii hhdrokarbanatis	0,015
D.t.d. № 12 in pulv.	0,2

Dori shakllari. Odam organizmiga dori moddalarining ta'siri.

Qattiq dorilar

Qattiq dorilarga poroshok, tabletka, draje kiradi. **Poroshoklar**- Pulveris ichiladi va sirtga qo'llaniladi. Ichiladigan poroshoklar havonchada yanchiladi, dozalarga bo'lib tortiladi va qog'oz kapsulalarga solib o'raladi. Bunday poroshoklar dozalangan va bo'lingan poroshoklar deyiladi. Agar dorining dozasi oshib ketishi zarar qilmaydigan bo'lsa, uni bo'linmagan holda yozib berish mumkin. Bunday dori paketlarda beriladi va unu bemotning o'zi bo'lib ichadi (soda, kuydirilgan magneziya va hokazolar).

Retsept namunasi:

Bo'linmagan oddiy poroshokning yozilishi

30,0 magniy oksid yozib

¼ choy qoshiqdan kuniga 2mahal ichish tayinlansin

Rp: Magnesii ustae 30,0

D.s. ¼ choy qoshiqdan kuniga 2 mahal ichilsin.

Dozalangan poroshok yozib beriladigan bo'lsa, retseptda uning bir marta ishlatiladigan dozasi ko'rsatiladi. So'ngra poroshoklar haqida farmasevtga ko'rsatma beriladi (D.t.d. N. Da tales doses numero-shunday dozalardan....ta berilsin). Murakkab poroshok yozib berilganda retseptda shunday dori tayorlash lozimligi M. F.p. misce fiat pulveris-“aralashtirib poroshok hosil qil” deb ko'rsatiladi.

Bo'lingan poroshokning o'rtacha vazni 3,0-0,5 ni tashkil etadi. Poroshokning vazni kamida 0,1 va ko'pi bilan 1,0 bo'lishi kerak.

Dozasi 0,1 dan kam dorilarga boshqa biror modda –qo'shimcha qand-Caccharum va soda-natrii hydrokarbanas qo'shib yozilib, oroshokning vazni 0,3-0,5 ga etkaziladi.

O'simliklar (bargi ildizi va hokazo) dan olingan dozasi 0,05 dan kam poroshoklarga shakl beruvchi modda qo'shib yoziladi. Bunday poroshoklar Pulveris so'zi bilan boshlanadi, keyin o'simliklarning nomi yoziladi (masalan, Pulveris foliorum; pulveris radikicis Rhei).

Retsept namunasi:

Bo'lingan oddiy poroshokning yozilishi

6ta amidipirin (Amidopyrinum) poroshogi

0,5 dan yozib bir poroshokdan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Rp: Amidopyrini

D.t.d. №6 in pulv.

S.1 poroshokdan kuniga 3 marta ichilsin

Bo'lingan murakkab poroshokning yozilishi. 0,25 dan atsetil salitsilat kislota-Acidum acetylsalicylicum va fenatsetin-Phenacetinum hamda tarkibida 0,05 kofein-natriy benzoat bo'lgan 12 ta poroshok yozib 1poroshokdan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Rp: Phenacetini acidi acetylsalicylici 0,25

Coffeini-natrio benzoatis 0,05

M.f. pulv. D.t.d. №12

1 poroshokdan kuniga 3 marta ichilsin

Gigroskopik va havoda nurab ketadigan preparatlar mumlangan (Charta cerata) yoki parafinlangan (charta parafinata) qog'oz kapsulalar beriladi. Bu haqda retseptda ko'rsatma berish lozim.

Masalan: tarkibida 0,2 dan uqalangankamfora (Camphore tritae) bo'lgan 12 poroshokli mumlangan qog'ozlarda tayorlanib, 1 poroshokdan kuniga 3 mahal ichish tayinlansin.

Rr: Camphorae tritae 0,2

D.t.d. №12 in charta cerata

S.1 poroshokdan kuniga 3 marta ichilsin

Sirtga ishlatiladigan poroshoklar juda kukun qilib (Pulveris subtilissimi) yara va shiliq qavatlarda sepish uchun ishlatiladi. Bunday poroshoklar 5,0 dan 100,0 gacha va undan ortiq miqdorda yozib beriladi. Retseptda dorining nomi, darajasi ko'rsatiladi.

Retseptlarga misollar:

Bo'linmagan oddiy poroshoklarning yozilishi. 20,0 juda mayda streptotsid poroshogi yozib, yaraga sepish uchun tayinlansin.

Rp: streptokide subtilissima 20,0

D.s yaraga sepish uchun

Bo'linmagan murakkab poroshokning yozilishi

Tarkibida 125000 TB penitsilin (Penikillinum) va 5,0 etazol (Aethazolum) bo'lgan juda mayda poroshok yozib, burunga purkash tayinlansin.

Rp: Penikilini 125000 YD

Ayethazoli 5,0

M, f pulv. Subtilissimus

D.S. burunga purkash uchun.

Kapsulalar yoki oblatkalar. Kapsulalar (Capsulae s. Oblatae) dozalangan poroshoksimon, pastasimon yoki suyuq dorilarni joylash uchun ishlatiladigan qobiqlardir. Taxir, qo'llansa hidli yoki shiliq pardalarga ta'sir etadigan dori darmonlar kapsulada beriladi. Kapsulalar jelatin yoki kraxmallardan tayyorlanadi.

Jelatin kapsulalar yumshoq yoki elastik (Capsulae gelatinosae molles elasticae) va qattiq (Capsulae gelatinosae durae) bo'ladi. Ular uzunchoq tuxumsimon va sharsimon bo'lib, 0,1 dan 1,5g gacha dori solish mumkin.

Kraxmal kapsulalar yoki oblastkalar (Crosulae amylaceae s. Oblatae) kraxmal va bug'doy unidan tayyorlanadi. Ular biri ikkinchisiga tushadigan 2 ta kosachadan iborat. Kichik kosachaga poroshok solinib, kattasi bilan yopiladi. Kraxmal oblastkalar mo'rt bo'lib, tez yumshaydi va yiriladi. Shuning uchun ulardan gigroskopik moddalar tayorlanmaydi. Dori kapsulalar beriladigan bo'lsa, retseptda kraxmal kapsulalar yoki oblastkalarda (in kapsulis amylaceis s. in oblatibus), jelatin kapsulalarda (in kapsulis gelatinosis) berilsin deb ko'rsatiladi.

R e t s e p t n a m u n a s i:

Oblastkalar yoki kraxmal kapsulalarda 0,5 dan 12 ta livomitsitin (Laevomycesinum) poroshogi yozib, 1 oblastkadan kuniga 4 marta ichish tayinlansin.

Rp: Laevomycesinum 0,5

D.t.d. № 12 in oblatibus seu

In capsulis amylaceis

D.S. 1 oblastkadan kuniga 4 marta ichilsin.

Jelatin kapsulalarda 0,5 dan 6 ta xinin gidrokslorid (Chininum hydrochloridum) poroshogi yozib 1 kapsuladan kuniga 2 marta ichish tayinlansin.

Rp: Chinini hydrochloridi 0,5

D.f.d. №6 in capsulis gelatinosis

S. 1 kapsuladan kuniga 2 marta ichilsin.

1. Dorining nomi va bir marta ichiladigan dozasi yozilib, so'ngra shunday tabletkalardan nechta berish kerakligi "Da tales doses (D.t.d.) N....in tabulettis. Shunday dozalardan. . . tasi tabletkalarda berilsin" deb yoziladi va tayin qilinadi.

2. Yozuv “tabulettae” so’zi ya’ni dori shaklini ko’rsatish bilan boshlanib, so’ngra dori moddani nomi va bir marta ichiladigan dozasi nomi yoziladi. Yozuv tabletkalar sonini ko’rsatish: da tales doses (D.t.d.) va tayin qilish (Signa) bilan tugallanadi.

R e t s e p t n a m u n a s i:

0,25 dan (ana) anal’gin va anidopirin, 0,1 kofein-natriy benzoat (Coffeinum-natrii benzoas) tutgan 10 ta tabletka yozib, 1 ta tabletkadan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

0,2 dan barbamil (Barbamylum) tutgan 6 ta tabletka yozib, 1 ta tabletkadan, uyqudan yarim soat oldin ichish tayinlansin.

Har biri 0,01dan bo’lgan 6 ta erapitazin (Aethaperazinum) tabletkasi yozib, 1 ta tabletkadan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Har biri 0,05dan bo’lgan 20 ta seduksen (seduxcenum) tabletkasi yozib bir tabletkadan kuniga 2 marta ichish tayinlansin.

Draje- Dragee zavodda dori va qo’shimcha moddalarni qand bilan bir necha marta aralashtirib tayyorlanadi. Qo’shimcha modda sifatida qand, bug’doy uni, kraxmal shirachi, daraxtlar emili eritmasi, shokolad, ichimli sharbatlar, bo’yoqlar, tal’k, natriy karbonat va hokazolar ishlatiladi. Draje ma’lum rangda, yaltiroq sharchalar ko’rinishida bo’ladi. U faqat ichiladi. Vitaminlar, preparatlar, aminazin ana shunday draje holda tayyorlanadi. Drajening og’irligi 1,0 dan oshib ketmasligi kerak. Draje yozib berilganda avvalo dori shakli (Dragee), so’ngra dori moddani nomi, bir marta ichiladigan dozasi, drajelari soni (D.t.d.N.) ko’rsatiladi.

R e t s e p t n a m u n a s i:

Tarkibida 0,5 diazolin (Diazolinum) bo’lgan 20 ta draje yozilsin. Kuniga 2 marta 1 drajedan ichish tayinlansin.

Rp: Drage diazolini 0,05

D.t.d. №20

S. kuniga 2 marta 1 drajedan ichilsin.

Eritmalalar- Solutiones suyuq dori moddalar aralashtirilganda yoki qattiq dori moddalar erituvchida eritilganda hosil bo’ladigan dori shakli. Erituvchi sifatida ko’pincha distillanga suv (Aquae distillatae), ba’zan etil spirt (Spiritus aethylicus 70⁰, 90⁰, 96⁰), glitsirin (Glycerinum) va suyuq moylar: vazelin moyi (Oleum persikorum) ishlatiladi. Eritmalar ichiladi, sirtga ishlatiladi va ineksiya qilinadi. Ichiladigan eritmalar osh qoshiqlari, desert qoshiqlari, hamda tomchilar bilan dozalanadi. Suvdagi eritmalar uchun osh qoshiqning hajmi o’rtacha 15,0 desert qoshiqnikini 10,0 choy qoshiqnikini 5,0ml. Eritmalar nomini retseptda to’liq yoki qisqartirib yozish mumkin. Retsept tuzish va hisoblash uchun:

- 1) ta’sir etuvchi moddani bir martalik dozasi;
- 2) shu dozadagi erituvchining hajmini (osh qoshiq, desert qoshiq, choy qoshiq va hokazo);
- 3) necha marta (10-12) ichish lozimligini bilish kerak.

R e t s e p t n a m u n a s i:

4 kun ichish uchun natriy bromid (Natri bromidum) eritmasi yozib, 1 osh qoshiqdan ichish tayinlansin.

Kengaytirib retsept yozish uchun hisoblash.

Bemor natriy eritmasini 4 kun davomida kuniga 3 martadan, ya’ni $3 \times 4 = 12$ marta ichadi. Natriy bromidning bir ichishlik dozasi 0,5; 12 marta ichish uchun esa $0,5 \times 12 = 6,0$ natriy bromid yozish lozim. Eritmaning umumiy hajmi 180,0ml bo’lishi kerak, chunki 1 osh qoshiqning hajmi $15,0 \times 12$ (ichish soni) = 180,0.

Rp: Natrii bromidi 6,0

Aquae destillatae 180,0

M.D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin

Qisqartirib retsept yozish quyidagicha: ma’lum eritmaning konsentratsiyasini protsentda ifodalash uchun dozasini etiborga olib, quyidagicha proporsiya tuziladi: natriy bromidning 1 marta ichishlik dozasi – 0,5 (bir osh qoshiq-15ml) bo’ladi, 100ml da (protsent hisobida) X miqdorda bo’ladi.

12 marta ichish uchun esa $15 \times 12 = 180$ ml eritma kerak. Demak, 3% li eritmada 180,0 yozish lozim.

Rp: Sol. Natrii bromidi 3%-180,0

1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

Ichiladigan zaharli va kuchli ta'sir etuvchimoddalar, odatda tomchilab tayin qilinadi. bUnday eritmalarga retsept yozganda dorining bir marta ichiladigan dozasi qoshiqdaemas, balki bir necha (5,10,20) tomchidan iborat bo'lishini nazarda tutishi lozim. Eritmaning tomchilardagi miqdori retseptda og'irlik birliklarida ifodalanadigani uchun, hisoblanganda tomchilarni grammlarga aylantirish lozim:1g suv 20 tomchi, 1g 96⁰ li spirt 65 tomch, 1g 90⁰li spirt 62 tomchi, 1g 70⁰li spirt 156 tomchi, 1g 40⁰ spirt 47 tomchi va 1g dietilfir 85 tomchi bo'ladi.

R e t s e p t n a m u n a s i

10 marta ichish uchun kodein fosfat (Cedienum phosphas) eritmasi tayyorlansin. Bunda 10 tomchidan (10 tomchi-0,5 suv) tayinlanganda, tarkibida 0,01 kodein fosfat bo'lsin. Bu Quyidagicha hisoblanadi.

$$0,01 \times 10 = 0,1$$

$$0,5 \times 10 = 5,0$$

Demak to'liq yozilganda, retsept quyidagicha bo'ladi:

Rp: Codieni phosphatis 0,1

Aguae destillatae 5,0

M.D.S. 10 tomchidan ichilsin

Sirtga ishlatiladiga eritmalar. Bu moddalar yozib berilganda eritmaning dozasi emas, konsentratsiyasi e'tiborga olinadi.Ko' quloqqa tomiziladigan dorolar 5,0-10,0; ho'lab qo'ish, yuvish, chayqash, sprinsovaniye qilish uchun ishlatiladigan eritmalar 50,0-500,0ml miqdorda yoziladi.

Erituvchisi suv bo'lgan, mikrobg qarshi ta'sir ko'rsatadigan eritmalar nisbat (1:500; 1:1000; 1:10000 va hokazo)shaklida beriladi

Retseptni to'liq va qisqartirib yozish mumkin. To'liq yozilganda, oldin dorining nomi, keyin erituvchi ko'rsatiladi.

Rp: Furacillini 0,1

Aquae destillatae 500,0

M.D.S. yaralarni yuvish uchun

Eritma konsentratsiyasini retseptda protsent, nisbat va og'irlik birliklarida ifodalash mumkin. Ko'pincha konsentratsiya protsentlarida ifodalanadi.

Qisqartirilgan retseptlarga misollar:

Rp:Sol.Furasillini 0,2%-500,0

D.S.Yaralarni yuvish uchun

Eritma konsentratsiyasining nisbatlarda ifodalanishi:

Rp:Sol Furacillini 1:5000-500,0

D.S. yaralarni yuvish uchun

Eritma konsentratsiyasining og'irlik birligida ifodalanishi;

Rp:Sol Furacillini 0,1-500,0

D.S. yaralarni yuvish uchun.

Spirтли va moyli eritmalarini ham to'liq va qisqartirib yozish mumkin, lekin bunda erituvchining nomi albatta ko'rsatiladi. Agar retseptda spirtning konsentratsi ko'rsatilmagan bo'lsa, etil spirt (90⁰) olinadi. Suv (qaynatilgan, distillangan, ikki marta distillangan) eng yaxshi erituvchi hisoblanadi, chunki unda dori modda o'zgaraydi, suvning o'zi organizmga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Distillangan suv (Aguae destillatae) hamma hollarda ayniqsa kumush, nitrat,qo'rg'oshin asetat, kaliy yodid va hokazolarni eritishda ishlatiladi. Ikki marta distillangan suv(Aguae begistillatae)parentiral yo'l bilan, ya'ni ukol qilinadigan eritmalar uchun ishlatiladi. Etil spirt erituvchi bo'lishi bilan birga surtilganda mahalliy ta'sir ko'rsatuvchi aktiv dori ham hisoblanadi. Dorilarning spirтли eritmasi suvdagi eritmasiga qaraganda tezroq surtiladi. O'simlik moylariineksiya qilinadigan moyli eritmalar tayyorlash uchun ishlatiladi. Ularga shaftoli moyi (Oleum persikolum), bodom moyi (Olium Amygdalarum) va zaytun moyi (Oleum zini), kakakunjut moyi (Oleum rechini) baliq moyi (Olium lekolis) qo'llanadi. Ayrim hollardagina bodom, shaftoli va zaytun moyi ishlatish mumkin.

Parentiral yo'l bilan, ya'ni ukol qilib yuboriladigan eritmalar zavod va dorixonada sterillanib tayyorlanadi. Bu dorilar teri ostida (hajmi 1-2ml li ampullalar), muskullar orasida (3-5ml) venaga (5-10-100ml va undan ortiq) yuborish uchun mo'ljallangan. Bunday dorilarni yozganda ularning dozasi necha marta yuborilishi va bir ineksiya qilinganda yuboriladigan eritma miqdorini e'tiborga olish kerak. Dorini sterillangan holda berish

lozimligi retseptda Sterilisetur ("Sterillansin") deb ko'rsatiladi. Ko'pgina dori preparatlari faqat ampulalarda emas, flakonlarda ham beriladi. Bunda preparatning sterilligi saqlangan holda, flakondagi moddani bir necha marta olib qo'llash mumkin. Antibiotiklar, gormonal preparatlar (insulin) va boshqalar flakonlarda chiqariladi. Bunday dori moddalarni yozganda retseptda qaysi idishda berilishi ko'rsatilmaydi.

Retsept namunasi:

Tarkibida 5,0 dan (har 1,0ml da 40 TB) insulin bo'lgan 4 ta flakon yozilsin. 20TB dan kuniga 2 marta teri ostiga yuborish tayinlansin.

Rp: Insulin 5,0(40TB-1,0)

D.t.d.№ 4 in amp.

S.20TB dan kuniga 2 marta teri ostiga yuborilsin.

Konservalash.Sog'lom hayvonlarning organlari to'qimalari, qoni va boshqa suyuqliklaridan olinib ichish uchun qo'llanadigan organik preparatlar konservalanadi. Organik preparatlarni konservalash uchun erituvchi (spirt, osh tuzi eritmasi, xloroform,aseton va hokazo) hamda konservalovchi eritmalar, ya'ni olinadigan ta'sir etuvchi modda aktivligi o'zgartirmaydigan modda ishlatiladi. Konservalangan organik preparatlarni uzoq muddat saqlash va uzoq masofalarga yuborish mumkin.

Mikstrular-Mixturae yoki suyuq aralashmalar (lotincha mixtio aralashma)- ko'p uchraydigan dori shakllaridan biri.Miksturalar tarkibida qattiq vasuyuq dori moddalar kiradi.Miksturalar tiniq, xira vacho'kmali bo'lishi mumkin. Cho'kma bo'lgan hollarda ichishdan oldin chayqatish lozim.Miksturalar ichish, sirtga ishlatish va porenteral yuborish uchun ishlatiladi.Ichiladigan miksturalar yozib berilganda, dori moddaning bir ichishlik dozasi va necha marta ichilishi e'tiborga olinadi.Retseptda mixtura degan ibora qo'llanmaydi.

Retseptlar namunasi:

Tarkibida 5,0 ipekakuana ildizi poroshogi (Radikis ipecacuanhae pulveratum) va 2,0 sof kodein (Codeinum purum) bo'lgan 200,0 mikstura yozilsin. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.Ichish oldidan chayqatilsin.

Rp:Rad.ipecacuanhae pulv. 5,0
Codeni puri 2,0
Aquae distillatae ad 200,0
M.D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

Tomchi dorilar-Guttae ichiladi va sirtga ishlatiladi.Ular tarkibida kuchli ta'sir etadigan va zaharli moddalar bo'ladi. Bularga nastroykalar eritmalar (quloq ko'z va burunga tomiziladigan tomchilar) kiradi.

Retsept namunasi:

1% li pilokarpin gidroxlorid eritmasi (Solutionis pilokarpinum hydroxloridum) dan 10,0yozib, ko'zga 2 tomchi tomizish tayinlansin.

Rp: sol.Pilokarpini hydroxloridi 1%-10,0

D.S. ko'zga 2 tomchidan tomizilsin.

15,0 beladonna nastroykasi (Tinstura belladonna) yozib, 10 tomchidan ichish tayinlansin.

Rp: T-rae beladonnae 15,0

D.S. 10 tomchidan ichilsin.

Damlama va qaynatmalar;-Infusa et decocta ta'sir etuvchi moddasi o'simlik xomashyosidan suv vositasida ajratib olingan suyuq dorilardir.

Damlama quritilgan o'simliklarni yumshoq qismlari-barglari (folia), guli (flos) va o'tl (herba)dan tayyorlanadi. Ular maydalanib ustidan sovuq suv quyiladi, qaynab turgan suv hammomda idishda 15 minut damlanadi vasovitilib filtirlanadi.

Qaynatma asosan o'simliklarning dag'alroq qismlar po'stlog'i (cortex), ildizi (radix), ildizpoyasi (rhizoma) va boshqalardan tayyorlanadi. Qaynatma 30 monut isitiladi va uy temperaturasida 10 minut davomida sovigandan so'ng filtirlanadi.

Qaynatma vadorilar bemorga berish oldidan tayyorlanadi. Ular oson buzilishi sababli 3-4 kun ichishgagina etadiganqilib yozib beriladi va salqin joyga saqlash kerakligi aytiladi. Damlamava qaynatmalarda ajratib oluvchi suyuqlik suv bo'lgani uchun uni retseptda ko'rsatmay, qisqartirilgan shaklda o'simlik xomashyosi va suyuqlik nisbatini ko'rsatib, 10-12 marta ichishga etarli qilib yoziladi. Damlama va qaynatmalar dozasi osh

qoshiq, desert qoshiq bilan o'lchanadi. Bunda ham eritmalaridagi kabi qoshiqlab ichish nuataiy nazaridan hisob qilinadi.

Retsept namunasi:

0,6 angishvonagul barglari (folium digitalis) bor 180,0 damlama yozilsin. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Rp: inf soliya digitalis 0,6-180,0

D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

20,0 krushina po'stlog'i (Cortex frangula) bor 200,0 qaynatma yozilsin 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta ichish tayinlansin.

Rp:Des. Kortekis Frangulae 20,0-200,0

D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta ichilsin.

Nastoykalar- Tincturae galen preparatlar hisoblanadi. Ular suyuq, tiniq moddalar bo'lib, o'simlik xomashyosidan spirt-suv yoki spirt- efir aralashmasi vositasida ajratib olinadi. Kuchli ta'sir ko'rsatmaydigan o'simlik xom ashyosidan olinadigan nastroykalar 1:5 nisbatda (1 qism xomashyoga 5 hajmiy qism ajratuvchi modda) , nastroykalar og'irlik o'lchovida, o'rta hisobda 10,0-15.0mg dan yoziladi. Nastroykalar tomchilar soni bilan dozalanadi. Retsept yozganda vrach, odatda, nastroykaning nomi, keraklimiqdori va dopzasini ko'rsatadi.

Eng ko'p ishkatiladigan nastroykalar valey yana (Tinctura valeriana0, oddiy opiy 9 Tinctura opii simplir), strofand (Tinctura sprohanti), belladonna (Tinctura belladonna), marvaridgul 9Tinctura convallaria), yalpiz 9Tinctura mentha) nastroykalari va hokazolar. Barcha nastroykalar ofitsinal hisoblanadi (fabrika- zavodda tayyorlanadi) va ko'plab ishlab chiqariladi.

Retsept namunasi

15,0 valeryana (valerianae) nastroykasi yozib, 20 tomchida kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Rp: T-rae valerianae 15,0

D.s. 20 tomchidan kuniga 3 marta ichilsin.

Dorixonalarda spirtli nastroyka anashunday retseptda bo'yicha beriladi. Vrach efirli nastroyka yozib beradiga bo'lsa, uni ratseptda ko'rsatishi kerak. Masalan;

Rp:T-rae valerianae aetherae 15,0

D.S. 10 tomchidan kuniga 3 marta ichilsin.

Ekstraktlar-Ektrakta dorivor o'simliklardan ajratib olinadi. Ajratib oluvchi modda sifatida spirt, efir kamdan –kam holda suvishlatiladi. Ekstraktlar konsistensiyasiga qarab suyuq, quyuq va quruq bo'ladi.

S u y u q e k s t r a k t l a r

(birlik, son, bosh kelishikda Extraktum fluidum, qaratqich kelishikda –Extrakti fluidu)to'q rangli yashil chayqaladigan suyuqliklardir. Q u y u q e x t r a k t l a r (Exstraktum spissum, exsrakti spissi) quyuq uytemperaturasida idishdan to'kilmaydigan suyuqlikdir. Q u r u q e x t r a k t l a r (exsraktum siccum, Exstrakti sicce) g'ovak massa yoki poroshokdir. Suyuq ekstraktlar tayyorlashda xomashyoning 1 og'irlik qismidan 1og'irlik qism suyuq ekstrakt (bug'lantirilgandan so'ng)olinadi. Konsistensiyasiga qarab, ekstraktlar, nastroykalar kabi, og'irlik birligida yoziladi va tomchilar soni bilan dozalanadi.

Retsept namunasi:

20,0 krushina ekstrakti (Frangula) yozilib 20 tomchidan kuniga 3 marta ichish tayinlansin.

Rp:Exst. Frangulae fluidu 20,0

D.S. 20 tomchdan kuniga 3 marta ichilsin.

1,0 suyuq aloe ekstraktidan (exstraktum aloyo) 15 ampula yozilsin, 1ml dan teri ostiga yuborish tayinlansin.

Rp:Exst aloyos fluidu 1,0

D.t.d.№ 15 in ampul

S. 1ml dan teri ostiga yuborilsin.

Quruq va quyuq ekstraktlar og'irlik birliklarida dozalanadi. Ular poroshok, shamchalar, sharchalar tabletkalar va kapsulalar shaklida chiqariladi. Quyuq va quruq ekstraktlar yozib berilganda, retseptda Spessum (quyuq) yoki Siccum (quruq) so'zlari yozilmaydi.

Maz-Unguyenta sirtga ishlatiladigan yumshoq dori.

Tarkibida ta'sir etuvchi modda va asos bor. Yaxshi aralashadigan, dori moddaga ta'sir etmaydigan, yorug'lik va havo ta'sirida o'z xususiyatlarini o'zgartirmaydigan moddalar asos sifatida ishlatiladi. Ularga vazelin (Vazelinum), lanolin (Lanolinum), cho'chqa yog'i (Aderps suillus), naftalin (Naphthalanum), sariq mum (Cera flava), yashil sovun (Sapo viridus) va boshqalar kiradi. Eng arzon maz asosi neftdan olinadigan vazelindir. Maz miqdorini belgilashda kasallikning xarakteri, ishlatiladigan joyi, qancha joy shikastlanganligi e'tiborga olinadi. Ko'zga surtish uchun 5,0-10,0; terining kichiqroq joyi shikastlanganda 20,0-30,0; ko'p joyi shikastlanganda 50,0-100,0 va undan ortiq miqdorda maz yoziladi.

Mazlar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy mazlar tarkibida bir necha dori modda va asos kiradi. Murakkab modda bir necha dori va asosdan iborat. Mazlar qisqartirilgan va to'liq holda yozilishi mumkin. Qisqartirib yozilganda yozuv dori va shaklini ko'rsatish, ya'ni "Unguenti" (birlik, son qaratqich kelishik) so'zi bilan boshlanadi. Keyin dori moddaning nomi, protsentlarda ko'ratilgan konsentratsiyasi va o'g'irlik o'lchovida ifodalangan miqdori ko'rsatiladi. Retsept "Da signa" degan ko'rsatma bilan tugallanadi.

Retsept to'liq yozilganda, maz tarkibida kiradigan barcha dori moddalar va asosning nomi bilan miqdori ko'rsatiladi. Bunda yozuv M.f. unguentum (Misce ut fiat unguentum)- aralashtirib maz hosil qil so'zi bilan tugallanadi.

Retsept namunasi:

2,5 kseroform (Xeroformium) va 1,5 rux oksid (Zenkum oxydatum) bo'lgan, vazelin asos qilib olingan 50,0 maz yozilsin. Terining kuygan joylariga surtish tayinlansin.

T o' l i q y o z i l i s h i

Q i s q a r t i r i l g a n s h a k l i

Rp: xeroformii 2,5

Rp: unguyenti xeloformii 5%-50,0

Zinxi oxydi 1,5

D.S. kuyganda qo'llanadigan maz.

Vaselini ad 50,0

M.f. unduyentum

D,S terining kuygan joylariga surtilsin.

Farmasevtika sanoatida chiqariladigan oddiy yoki murakkab mazlar retseptda qisqartirilgan shaklda yoziladi. Masalan: 20,0 ofitsinal rux mazi (Unguentum zincum) yozilsin. Terining shikastlangan joyiga surtush tayinlansin.

Rp: unguyenti zince 20,0

D.S. Terining shikastlangan joyiga surtilsin.

Pastalar-Pasta (lotincha-pasta- xamir) 25% va undan ortiq miqdorda poroshok holdagi moddalar va mazlarga qo'llanadigan asoslari bor quyuq mazdir. Agar poroshok holdagimodda 25% dan kam bo'lsa, pasta hosil qilish uchun kerakli miqdorda indifferent poroshoklar –tal'k (Talcum), cho'ktirilgan kal'siy karbanat (Calkii carbanas), magniy karbanat (Magnesii karbonas), oq loy (bolus alba), kraxmal (Amylum) va boshqa moddalar qo'shiladi.pastalar teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Ta'na temperaturasi ta'sirida pastalar faqat yumshaydi va shu sababli terida uzoq turishi mumkin. Tarkibida poroshok holdagi moddalar ko'p bo'lganligi uchun pastalar adsorbsiya qilish va quritish xususiyatiga ega bo'lib, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Odatda, burishtirish, kuydirish va anteseptik ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'gan dori vositalari pasta shaklida yozib beriladi.

Pastalar dozasi belgilanmaydigan dori shakllaridan biri. Retseptda ularning umumiy miqdori ko'rsatiladi. Magistral pastalar to'liq yozilganda, barcha dori moddalar nomi va dozasi ko'rsatiladi. Retsept "M.f. pasta" (Misce ut fiat pasta- aralashtirib pasta hosil qil) degan ko'rsatma bilan tugallanadi.

Retsept namunasi:

Vazelinda (vazelinum) 2,0 cho'ktirilgan oltingugurt (Sulfur praecipitatum), 3,0 dan bug'doy kraxmali (Amylum tritikum) va tal'k (Talkum) bolgan 20,0 pasta yozilsin. Terining shikastlangan joyiga quyish tayinlansin.

Rp:Sulfuris praecipitate 2,0
Talki - 3,0
Amyli triticiaa 20,0
M.f. pasta
D.S. terining shikastlngan joyiga quyilsin.

Ba'zi pastalar farmasevtika zavodlarida tayyorlanadi va dorixonalarda tayyor holda beriladi. Ularga quyidagilar kiradi: Pasta zince- rux pastasi, Pasta zince saliycylata- rux –kalisilat pastasi, Pasta zinxe naphthalani – rux naftalin pastasi. Bu pastalar qisqartirilgan shaklda yoziladi.

Linimentlar-linimenta- suyuq mazlar. Ular quyuq- suyuq bo'lad, sirtga ishlatiladi (teriga ishqalanadi, surtiladi). O'simlik moylari pista moyi (Olium helianthi), zaytun moyi (olium olivarum), kakakunjut moyi (Olium ricini), zig'ir moyi (olium lini) va boshqalar linimentlarni tayyorlashda asos sifatida ishlatiladi. Linimentlar ham mazlab kabi yozib beriladi. Hozirgi vaqtda linimentlar tayyor holda chiqariladi. Spreptotsid va sintomitsin linimentlari baliq moyi (olium rikini) da tayyorlanadi. Ular yara chaqalar, yiringli yaralar, kuygan va sovuq olgan joylarni davolashda ishlatiladi. Retsept qisqartirilgan shaklda yoziladi.

Retsept namunasi:

30,0 ofitsinal streptotsid linimenti (Linimentum streptokidi) yozilsin. Kuygan joyga ishlatish tayinlansin.

Rp: linimenti strepcodiki 30,0
D.S. kuygan joyga ishlatilsin.

20,0 xloform 9Chloformium) va 40,0 mingdevona moyi (Olium hyoscyami) dan iborat 60,0 magistral liniment yozilsin. Og'riyotgan bo'g'imga surtish tayinlansin.

Rp:Chloformii 20,0
Olei hyoscuami 40,0
m.f linimentum

D.S. og'riyotgan bo'g'imga surtilsin.

Plastirlar- Emplastra mazlarga nisbatan qattiqroq bo'lib, uy temperaturasida qattiqlashadi, 37⁰da esa yumshab ketadi. Plastirlarga teriga mahkam yopishish xususiyati bor. Plastirlarning ko'pi farmasevtika zavodlarida tayyorlanadi. Bular moyli smolalar, qo'rg'oshinli oddiy (moyli –smolali va qo'rg'oshinli plastirlar aralashmasi), kauchukli va kleolli plastirlardir. Kleolli plastirlar tarkibida baliq elimi bo'ladi. Kauchukli plastirlar- yopishqoq plastir yoki leykoplastir xirurgiyada bog'lamalarni mahkamlashda bolalar suyagi singanda cho'zish maqsadida, yaralar chekkasini yaqinlashtirish uchun ko'p ishlatiladi. Leykoplaster teriga burishtiruvchi, qitiqlovchi yoki antiseptik ta'sir ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi. Suyuq plastirlar ham ishlab chiqariladi. Ofitsinal suyuq plastirlar ikkita: kleol va kollodiy. Ular xirurgiyada bog'lamalarni mahkamlash va ximoya qiluvchi antisiptik parda hosil qilish uchun ishlatiladi. Plastirlar retseptda qisqartirilgan shaklda yoziladi.

Retsept namunasi: 250,0 kleol (Cleolum) yozilsin. Bog'lamalarni yopishtirish uchun deb tayinlansin.

Rp:Cleoli 250,0

D.S. bog'lamalarni yopishtirish uchun.

50,0 qo'rg'oshinli plaster (Emplastrum plumbi simplex) yozilsin. Bir oz isitib materiallarga surtish va terining shikastlangan joyiga quyish tayinlansin.

Rp: emplastri plumbi simplicis 50,0

D.s. bir ozisitib materiallarga surtilsin va terining shikastlangan joyiga qo'yilsin.

Suppozitoriya-Suppozitoriya uy temperaturasida qattiq bo'lib, ta'na temperaturasida eriydigan yumshoq dorilardir. Ular to'g'ri ichakka (Suppositoriya rectalia), qinga (Suppozitoriya vagenaliya) kiritiladi vahokazo. Shuning uchun Suppozitoriya rektal (shamchalar), vaginal (sharchalar) va tayoqchasimon bo'ladi. Kakao moyi (Olium kakao seu buturum cacao) suppozitoriylar tayyorlash uchun eng yaxshi asos hisoblanadi. Rektal va vaginal suppozitoriylar retseptda 1 ta suppozitoriy uchun kerakli dorilar nomi va miqdorini ko'rsatib to'liq yoziladi.

Retseptda asos miqdorini ko'rsatish shart emas, uning o'rniga "q.s" (quantum sates –keragicha) deb yoziladi. Tayinlashdan oldin albatta "D.t.d.N." (Da tales doses umero-shunday dozalardan... dona ber) deb ko'rsatiladi.

Retsept namunasi:

0,05 dan angishvonagul yaprog'i poroshogi (Pulveris foliorum degitalis) va 2,5 dan kakao moyi (Olium cacao) bo'lgan 10 rektal suppozitoriy yozilsin. 1 suppozitoriydan kuniga 2 marta tayinlansin.

Rp:Pulv. Folii degitalis 0,05
Olei cacao 2,5
M.f. suppozitorium rectales
D.t.d.№ 10
S. 1 suppozitoriydan kuniga 2 marta ichakka qo'yilsin.

Ofitsinal suppozitoriyalar qisqartirib yoziladi.

R e t s e p t n a m u n a s i : 0,25 dan sintomitsin (Synthomycinum) bo'lgan 6 ta ofitsinal rektal suppozitoriy yozilsin.

Ertalab vakechasi 1 suppozitoriydan quyish tayinlansin.

Rp:Suppozitorii synhamycini 0,25
D.t.d.№6
S. Ertalab va kechasi 1 suppozitoriydan quyilsin

Dorilarning organizmga ta'siri.

Biror kasalliklarni davolash yoki uningoldini olish maqsadida ishlatiladigan dorilar organizmga mahalliy, rezobrtiv (umumiy) va tanlab ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Dori qo'llangan joyning o'zida ko'rsatadigan ta'siri *mahalliy ta'sir* hisoblanadi. Masalan gorchichniklar qo'yilganda mahalliy ta'sir ko'rsatadi; ko'zga tomiziladigan, og'iz va tomoq chayqaladigan, teriga ho'llab qo'yiladigan dorilar, sprinsovka qilish vahokazolar ham mahalliy ta'sir etadi. Ximiyaviy qurol sifatida qo'lanadigan terini uyuvchi iprit yoki lyuizit kabi zaharlovchi moddalar ham mahalliy ta'sir ko'rsatadi. Natijada teri avval qizaradi, pufakchalar hosil bo'ladi va hokazo.

R e z o b r t i v , ya'ni u m u m i y t a ' s i r . Bunday ta'sir dori qonga quyilgandan so'ng nomoyon bo'ladi. Shu tariqa dori ichki organlar va markazlariga ta'sir qiladi. Umumiy (rezobrtiv) ta'sir ko'rsatuvchi dorilar biror organ faoliyatini qo'zg'atishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan uyqu dorilardan *barmabil* (Barbaymylum) yoki *fenobarbital* (Phenobarbitalum) ning davo dozasi markaziy nerv sistemasini tinchlantirib, kishini qattiq uxlatib qo'yadi. Katta (Zaharlovchi-toksik) dozalarda esa markaziy nerv sistemasini falajlaydi va o'linga sabab bo'ladi; efir nafas orqali ta'sir etganda shiliq qavatlar keskin soviydi, so'ngra sezmaydigan bo'lib qoladi (anesteziya). Keyin efir qonga so'rilib, avval markaziy nerv sistemasini qo'zg'atadi, so'ngra tinchlantiradi, ya'ni narkoz ro'y beradi.

Dorilar bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Ualrning to'g'ridan-to'g'ri biror organga ko'rsatadigan ta'siri bevosita ta'sirdir. Masalan, nitroglitsirin (Nitroglycerinum) tomirlarga yurak glyukozitlari yurak muskullariga ta'sir etadi va hokazo.

Dorining asosiy bevosita ta'siridan kelib chiqadigan ikkinchi darajali foydali ta'siri *bilvosita (qoshimcha) ta'sir* hisoblanadi. Masalan angishvonagul yurak ishini yaxshilashi tufayli qon aylanishini normaga keltiradi va siydik ajralishini yaxshilab, qon dimlanishini yo'qotadi, yana arganizmdan ko' suyuqlik ajralishiga va shishlar yo'qolishiga olib keladi.

Asosiy ta'sir bilan bir qatorda noxush ta'sir ham ro'y beradi. Bu ba'zan organlarda sodir bo'ladigan javob reyaksiyasidir. Masalan streptomitsitin (Streptomykinum) qo'llanganda asosiy (kasallik qo'zg'atuvchiga ko'rsatiladigan) ta'sir bilan birga bemorning eshituv qobiliyatini pasayishi kabi noxush ta'sir ham ro'y beradi.

Reflektor ta'sir dorilarning organizmga mahalliy va umumiy ta'siridan kelib chiqishi mumkin. Dorilar nerv uchlari (retseptorlar)ga ta'sir etadi. Ular qo'llangan joyga paydo bo'lgan qo'zg'alish sezuvchi nervlar orqali markaziy nerv sistemasiga, u yerdan harakatlanuvchi nervlar orqali ayrim organlar boradi. Masalan narkoz vaqtida efir (Aether med) dozasi oshib ketsa, nafas olish va yurak ishi reflektor ravishda to'xtab qolishi mumkin.

Dorilarning qayta tiklovchi ta'siri deganda, dori yuborish to'xtatilganda, uning ta'siri yo'naltirilgan organlar faoliyati holatga kelishi tushuniladi. Masalan, organizmga atropin sulfat (Atropinum sulfurikum) yuborilganda koz qorachig'i kengayadi, preparatlar organizmdan chiqib ketganidan keyin esa u normal holga

keladi. Dori ta'sirida organlarda katta o'zgarishlar ro'y berib, ularning faoliyati to'xtashi mumkin. Dorilarning qayta tiklanmaydigan ta'siri deb shunga aytiladi. Masalan so'gal yoki boshqa o'simtalar lyupis (Argentum nitricum) yoki kislotalar bilan kuydirilganda, bu o'simtalardagi hujayralar nobut bo'ladi (nekroz) va so'gal o'smaydi.

Dorilarning tanlab ta'sir ko'rsatishi butun organizm yoki boshqa organlarga deyarli ta'sir qilmay, ayrim organga tanlab ko'rsatadigan ta'siridir. Masalan apomorf (Apomorphinum) teri ostiga yuborilganda, qusish markaziga tanlab ta'sir ko'rsatishi tufayli qusish ro'y beradi. Tanlab ko'rsatilgan ta'sir- asosiy bevosita va bilvosita, noxush va reflektor, etiotrop va simptomatik, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan bo'lishi mumkin.

S i m t o m a t i k (p a t o g e n i t i k) t a ' s i r dorining kasallikning keltirib chiqargan omillarini emas, balki uning belgilarini yo'qotadigan yoki kamaytiradigan ta'siridan iborat. Ba'zan kasalliklar ko'pincha shunday simptomlar, ya'ni hayot uchun uhim organlar faoliyatini shunday buzilishi bilan o'tadiki, bunda inson hayoti xavf ostida qoladi. Masalan ko'pgina yuqumli kasalliklarda yurak faoliyatini susayishi o'limga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yurakning normal ishlashiga imkon beruvchi simptomatik vositalar o'z vaqtida qo'llanilishi zarur.

E t i o t r o p t a ' s i r dorilarning kasallik ta'sirini yo'qotishga qaratilgan ta'siri. Masalan, sulfademizin (Sulfodemizinum) o'pka, siydik yo'llari yallig'langanda, dezinteriyada va boshqalarda; oq streptodsid-infeksiya tushgan jarohatlar, yaralar kuygan joylarni, saramas, angena, meningitni davolashda hamda jarohatlarga infeksiya tushishining oldini olishda; vitaminlar-avitaminoz va hokazolarda shunday ta'sir ko'rsatadi.

Dorilar organizmga qayta yuborilgandagi ta'siri.

Dorilar organizmga qayta yuborilganda ta'siri susayishi yoki kuchayishi mumkin. Ba'zi dorilar organizmdan sekin chiqib ketadi, ular takror yuborilganda esa to'planib boradi. Bunga *komulyatsiya* deb aytiladi. Organizmda dori to'planishi natijasida zaharlanish mumkin. Shuning uchun komulyativ xususiyati bor dorilarni, ular organizmdan chiqib ketishi uchun, bo'lib-bo'lib yuborish lozim. Masalan veronal (Veronolum) komulyativ ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli uni poroshok yoki tabletkalar shaklida ko'pi bilan 6 dona yozib beriladi.

Ba'zi dorilarga organizm ko'nikib qolishi mumkin. Bunday dorilar qayta yuborilganda ta'siri kuchaymay, aksincha susayadi. Natijada dorini har gal avvalgisiga nisbatan ortiqroq yuborishga to'g'ri keladi.

Markaziy nerv sistemasi (bosh miya po'stlog'i)ga ta'sir etadigan moddalar takror yuborilganda, organizm ularga o'rganib qoladi, ya'ni bemor bunday moddalarni qumsaydigan bo'lib qoladi, ularni doim yuborib turishni talab qiladi. Morfin (Morphinum), kokain (Cocainum), gerain (Heranum), promedol (Promedolum) va boshqalar yana shunday moddalardandir. Ayrim dorilar (analgin, aspirin, antibiotiklar va hokazolar) ga nisbatan ba'zi odamlarga bo'ladigan yuqori sezgirlik *idiosinkraziya* deb ataladi.

Biror organga bir xil ta'sir ko'rsatadigan dorilar qo'llanganda ular ta'siri kuchayadi. Bunday hol *senergizm* deyiladi, o'zaro ta'sirini kuchaytiradigan moddalar sinergistlar deyiladi. Bir xil ta'sir etadigan ikki modda qo'llanganda, ularning har biri alohida qo'llanganda efekt beradigan dozasi nisbatan ikki baravar, uch modda bo'lganda esa uch baravar kam dozasi olinadi. Masalan issiq tushiradigan analgin (Analginum), amidopirin (Amidopyrinum) va hokazolar antagonistik ta'sir ko'rsatib, bir-birining ta'sirini susaytirishi ham mumkin. Ikki organ bir sistema yoki organga qarama qarshi ta'sir etishi ham mumkin. Masalan efir markaziy nerv sistemasini tinchlantirsa, kofein qo'zg'atadi. Bu moddalar o'zaro bir-birining ta'sirini susaytiradi yoki yo'qotadi.

Agar yuborilayotgan dori organizmda avval yuborilgan dorining ta'sirini yo'qotsa, bunday holatda antidotizm (aksini berish) deb, dori modda esa antidot (ziddizahar) deb ataladi.

Zaharlanish ro'y berganda antidotlar bilan davolash maqsadga muvofiqdir. Antidotlar shunday dori vositalariki, ular zaharni qonga so'rilguncha neytrallashtirish, qon va to'qimalardagi zaharni zararsizlantirish hamda muhim hayotiy bioximiyaviy sistemalarning funksional-fiziologik antagonizmini ta'minlash xususiyatiga ega. Masalan, tarkibida margimush bo'lgan zaharli ximikatlardan va zaharlovchi moddalardan lyuizitdan zaharlanganda unitiol antidot sifatida yaxshi foyda beradi; tarkibida sian birikmalari bo'lgan moddalar uchun mitgimoglobin hosil qiladigan moddalar (amilnitrid-Amyliumnitrosum, propilnitrit-Propylium nitrosum, metil ko'ki-Methylium coeruleum, giposulfit-Nateium tiosulfatum, sistin-Cytinum, glyukation-Glutation, glyukoza-Glukoza) ishlatiladi.

Fosfororganik zaharli moddalar (zarar V gazlar) va zaharli ximikatlardan zaharlanganda xolinolitik preparatlar (atropin-Atropinum, tropatsin-Tropocinum, aprofen- Aprofinum, pentafen-Pentaphinum va boshqalar) yaxshi foyda beradigan antidotlar hisoblanadi.

Dorilarning organizmga ta'siri ularning fizik-ximiyaviy xossalari har bir bemorning chidamliligiga, yoshiga, organizmning holatiga va dorini ishlatish usullariga bog'liq.

Dori organizmga ikki yo'l bilan kiradi:

1. Entaral yo'l, ya'ni oshqozon- ichak yo'llariga og'izga (per os), to'g'ri ichakka (per rectum), bevosita oshqozonga (in venrikulus), o'n ikki barmoq ichakka (in duodenum intestinum) kiritish yo'li.

2. Parenteral yo'l, ya'nioshqozon-ichak yo'llarini chetlab, teri, shiliq qavatlar, o'pka orqali ineksiya qilib kiritish yo'li.

Ichilgan dori parenteral yo'l bilan yuborilgan doriga nisbatan sekinroq, kuchsizroq ta'sir ko'rsatadi, chunki u ichakdan qonga sekin so'riladi. Bundan tashqari oshqozon, jigar ichak kabi organlarga qisman parchalanadi.

Dorilar to'g'ri ichakka klizma yoki shamchalar yordamida yuboriladi. Bunday hollarda dori parchalanmaydi, chunki jigar va oshqozonni chetlab, gemoroidal venalar orqali tezda so'rilib qonga o'tadi. Shuning uchun bunda dori dozasi ichiladiganiga nisbatan kamroq olinadi. Mahalliy reflektor ta'sir ko'rsatish uchun dorilar (mazlar, pastalar, linimentlar, poroshoklar) ko'pincha teriga surtiladi, sepiladi.

Shilliq qavatlar (ko'z konyuktivasi, og'iz, burun, qin, bachadon, siydik kanali, qovuq) orqali dorilar asosan mahalliy ta'sir etish maqsadida yuboriladi. Bunda dori tez so'riladi. Efilazot (II)-oksid amilnitridkabilar nafas yo'li orqali yuboriladi. Bunda dori qonga juda tez so'riladi. Ingalyatsion narkozda uchuvchan moddalar va gazlarni ishlatishda asosan anashu usulda foydalaniladi. Dori teri ostiga, muskullar orasiga, venaga yuborilganda, organizmga tez so'rilib, kutilgan natijani beradi. Shuning uchun ko'pincha shoshilinch yordam ko'rsatishda bu usul qo'l keladi.

Dorilarning organizmda o'zgarishi va undan chiqib ketish yo'llari

Turli yo'llar bilan organizmga kiritilgan dorilar qonga so'riladi va butun organizmga tarqaladi. Organizmda dorilar turli o'zgarishlarga uchraydi: parchalanadi yoki murakkabroq birikmaga aylanadi, ya'ni o'z formokologik aktivligini yo'qotadi yoki oshiradi.

Dori organizmdan chiqib ketishi, uni kiritish kabi muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina dorilar buyrak orqali suyuq va gazlar (efir, azot (II)-oksid o'pka orqali, morfin sulfanilamidlar, og'ir metallar ichak orqali, ba'zilar (kumush) teri orqali chiqib ketadi.

Dorilarning organizmga ta'sirini o'rganish qulay bo'lishi uchun ular gruppalariga bo'linadi.

MAVZU 2. Isitmani tushiradigan, og'riqsizlantiradigan dori moddalar

Reja:

1. Narkotik va nonarkotik og'riq qoldiruvchi dorilar.
2. Narkozda va mahalliy og'riqsizlantirishda qo'llaniladigan dori moddalari.
3. Isitmani tushiradigan dori vositalari.
4. Bu dorilarning organizmga ta'siri.

Dars jihozi:

Plakat, dori namunalari.

Adabiyotlar:

- 1.S. Adizova "Farmakologiya" Toshkent
- 2.R.Ramazonova, H. Sodiqova "Favqulotda vaziyatlar uchun tibbiy hamshiralar tayyorlash" Toshkent 2006.
3. Ramazonova R.A, Yu.G.Semena. "Meditsina hamshiralari o'quv qo'llanmasi. T-85
4. N.Yu.Paleyev. "Meditsina hamshiralari spravochnigi" T-85.

Narkotik moddalar

I.P.Pavlov tarificha, "narkoz markaziy nerv sistemasining vaqtincha falajlanishi" hushdan ketish va barcha ta'sirlovchilarga nisbatan sezgirlikning yo'qolishi bilan belgilanadi. Narkoz ximiyaviy vositalar (ximiyaviy narkoz) elektor toki (elektor narkoz yordamida hamda gipnoz qilish yo'li bilan yuzaga kelishi mumkin.

Narkotik moddalarning organizmga ta'sir etish xususiyatiga qarab, ingalyatsion va noingalyatsion narkoz bo'ladi.

Ingalyatsion narkoz

Anesteziya qiluvchi hamshira narkoz apparatini tayyorlaydi, intubatsion naychalarni maskalar o'tkazuvchanligi, narkoz apparatining germetikligini, elektor so'rib olgich asbobning ishini, narkoz stolchasining barcha asbob bilan jihozlanganligini tekshiradi, etarli miqdorda kislorod azot (II)-oksid va boshqalar to'ldirilgan ballonlarni tayyorlaydi va anesteziolog vrach yoki xirurg ko'rsatmasi bilan, narkoz oldidan bemor tanasiga dori moddalar yuboradi.

Narkoz stolchasida quyidagilar:

-efir yoki boshqa suyuq narkotik modda: tiopental natriy yoki geksinal, 2 marta distellangan suv yoki eritma (noingalyatsion narkozni suyultirish uchun);

-mushak relaksant (bo'shashtiruvchilari)-dilitin (Diydhilinum), diplatsin (Diplacinum) tubokurarin (Tubakurarinum) paramion (Paramionum) va boshqalar;

- yurak tomir dorilari: kofein (Coffeinum),kamfora (Camphora), kordiamin (Cordiaminum), efedrid (Ephedrinum), adrenalin (Adrenalinum)mezaton (mezatonum) noradlinarin (Noradralinum), korazil (Corazolum) vaboshqalar;

-nafas oldiruvchi analeptiklar-lobelin (lobelitinum), sititon (Cytitonum) va boshqalar;

- 40% li glyukoza (Glukoza), 10%li kalsiy xlorid (Calcium chloridum) eritmaları;

- narkoz maskalari kattaligi va diametri har xil manjetlar bilan endoxraxeal naychalar;

- kornsang, qaychi, havo yuborish asbobi, shprislar va ineksion ignalar;

- to'g'ri va egilgan larengoskop;

- o'g'izni ochib tilni ushlab turadigan asbob;

- buyraksimon jomcha;

- sochiq ,steriallangan bog'lash materiallari,salfetkaar sharchalar bo'lishi kerak.

Operatsiya oldidan bemor tanasiga dori –darmon yuboriladi, ya'ni og'rirsizlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi. Operatsiyadan oldingi kuni kechqurun uxlatuvchi dorilar (netbutal-Netbutalum barmabil- Barmylum va boshqalar) kamroq dozalarda neyroplegiklar (aminazen –Amenazinum, pipolfin-Pipolphenum, suprastin-Suprastinum, dimedrol-Dimedrolum) beriladi. Operatsiyaga 30-40 minut qolganda muskullar orasiga pantopon (Pantoponum) yoki promedol (Promedolum) atropin (Atropinum) va neyroplegik moddalar bilan qo'shib yuboriladi.

Homilador va bolalarga uyqu dori va morfin berishda ehtiyot bo'lish lozim, chunki ular nafas markazini jarohatlashi oqibatida homila va bolaning nafasi qisilib (Asfiksiya) qolishi mumkin. Bemorni medikamentlar bilan tayyorlagandan so'ng operatsiyaga yotqizib oli borish lozim. Aks holda qon bosimi pasayib ketib kolaks ro'y berishi mumkin.

Umumiy narkoz ko'pincha noingalyatsion narkozdan boshlanadi: venaga asta-sekin 1-2% li tiopental natriy yoki giksenal eritmasi, so'ng shu preparatlarning yurakka salbiy ta'sirini yo'qotish uchun 5 ml 10% li kalsiy xlorid eritmasi yuboriladi.

Ingalyatsion- umumiy narkozda 4 davrga ajratiladi;

- 1- n a r k o z d a n o l d i n g i d a v r. Es-hush va temperatura sezgilari saqlanib qolgan holda, og'riq sezgisini yo'qolishi xarakterli. Bu davrda qisqa muddatli manipulyatsiyalar va oddiyroq operatsiyalarni bajarish mumkin.
- 2- Q o' z g' a l i s h d a v r i. Bu davrda og'riq sezgisi qayta tiklanadi, zo'r berib harakat qilish, sergaplik kuzatiladi (bemor ashula aytadi, qichqiradi yoki yig'laydi). Nafas olishi va tomir urishi tezlashadi, qon bosimi kotariladi, ko'z qorachig'i kengayadi. Narkozning budavrida hech qanday monipulyatsiya va operatsiya qilinmaydi.
- 3- X i r u r g l i k u y q u (n a r k o z) d a v r i. Es-hush batamom yo'qoladi muskullar bo'shashadi, og'riq sezgisi va taktil (narsa tekkanini bilish) sezgisi yo'qoladi. Reflekslar paydo bo'lmaydi. Nafas sekinlashadi, chuqur bo'ladi. Qon bosimi bir oz pasayadi. Tomir sekin uradi muskullar tonusi pasayadi Shox parda refleksi yo'qoladi. Bu davrda barcha asosiy operatsiyalar amalga oshiriladi.

Narkotik moddaning dozasi oshirib yuborilganda teri oqarib, ko'z qorachilari to'satdan juda kengayib ketadi, qon bosimi keskin pasayadi, nafas yuzaki bo'lib, keyinchalik to'xtab qolishi mumkin. Nafas markazining falajlanishi natijasida o'lim sodir bo'lishi mumkin.

Nafas to'xtab qolish xavfi tug'ilganda narkoz berish darhol to'xtatiladi, suniy nafas oldiriladi va teri ostiga nafas qo'zg'atuvchi dorilar –nafas analeptikalari (lobelin-Lobelinum, sititon-cytitonum va boshqalar) yuboriladi.

4- n a r k o z d a n c h i q i s h d a v r i. narkotik modda berishni to'xtatgan zahoti boshlanadi. Reflekslar yo'qolishiga nisbatan teskari tartibda navbat bilan tiklanadi, oxirida bemor hushiga keladi.

Ingalyatsion narkozda quyidagi asoratlar ro'y berishi mumkin: qusuq massalari, yot jismlar nafas yo'llariga tushishi, tilning tiqilib qolish natijasida nafas qisilishi (asfiksiya) o'pka yallig'lanishi, yurak reflektor ravishda to'xtab qolishi mumkin. Bunda yurak evosita yoki bilvosita massaj qilinadi, suniy nafas oldiriladi yurak dorilari (kamfora-Camphora, kordiamin-Cordiaminum, kofein-Coffeinum) ning birortasi ishlatiladi va hokazo.

Ingalyatsion narkotik moddalarga efir azot (II)-oksid ftorotan, xloretil kiradi.

Narkoz uchun ishlatiladigan e f i r (Aether pro narkosi) engil uchuvchan, oson o't oladigan suyuqlik. Qaynash temperaturasi 35⁰. Bug'lari havo bilan aralashsa, portlovchi aralashma hosil bo'ladi. Shuning uchun operatsiya xonalarda o't manbalarining bo'lishi xavflidir. Efir to'q rangli hajmi 100-200 ml li flakonlarda chiqariladi. Yorug'lik ta'sirida parchalanib zaharli moddalar hosil qiladi. Yorug'lik tushmaydigan salqin joyda ehtiyot qilib saqlanadi (B spiska). Efir mikrobg qarshi ta'sir etganligi uchun ba'zan ineksiya qilishdan oldin terini zararsizlantirish maqsadida sirtga ishlatiladi..

Azot (II)-oksid (Nitrogenium oxydulatum- “shodlantiruvchi gazlar”) rangsiz va hidsiz, shirin mazali, suvda yaxshi eriydigan gaz bo'lib, po'lat ballonlarda 40-50 atmosfera bosim ostida suyuq holda saqlanadi. Ballonlar ko'kka bo'yalgan. Tug'ish vaqtida vaqtida og'riqni kamaytirish, shok oldini olish va qisqa muddatli narkoz uchun kislorod bilan aralashtirib ishlatiladi.

Ftorotan (Phtorothanum) tiniq, rangsiz, engil uchuvchan, hidi xloroform hidiga o'xshash suyuqlik bo'lib, suvda yomon eriydi, qaynash temperaturasi 49-51⁰. Suvsiz spirt, efir, xloroform trixloretilen, moylar bilan yaxshi aralashadi. Ftorotan yonmaydi va portlamaydi. Uning narkoz uchun kislorod va azot (II)-oksid bilan aralashjtirib qo'llanadigan bug'lari portlamaydi va alanga olmaydi. Ftorotan to'q rangli flakonlarda saqlanadi, chunki yorug'lik ta'sida asta-sekin parchalanadi. U ingalyatsion narkoz uchun qo'llanadigan aktiv vositalardir. Ftorotan qo'llanganda skelet muskullari efer narkozidagiga nisbatan kamroq bo'shashadi. Ftorotan bilan narkoz berish

turli xirurgik manipulyatsiyalarda, jumladan, bolalar va keksalarda qo'llaniladi. Ko'krak bo'shlig'i organlar operatsiyasida ftorotan juda qo'l keladi, chunki u nafas yo'llari shiliq qavatlariga ta'sir etmaydi. Bronxial astma bilan og'rigan bemorlarga ham ftorotan narkoz qo'llash maqsadida muvofiq (M.A.Vishnevskiy, A.Z.Mishevich va boshqalar).

Ftorotan to'g'ri dozalanganda narkoz asoratsiz o'tadi, narkozdan so'ng bemor tez uyg'onadi. Uyg'onish tez ro'y berishi tufayli bemor qattiq boshi og'riydi, ba'zan bemor qaltiraydi (operatsiya vaqtida tomirlar kengayib, kop issiqlik yo'qotish natijasida). Bunday hollarda bemorni glerka bilan isitish lozim. Ftorotan narkozi shokda tavsiya qilinmaydi, jigari jarohatlanga bemorga ham qo'llash mumkin emas.

Ftorotan to'q rangli shisha flakonlarda 50 va 250 ml dan chiqariladi.Quruq, salqin, yorug'lik tushmaydigan joyda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

R e t s e p t n a m u n a s i:

RP: Thipenthali natrii 1,0

D.t.d.№ 3 in amp.

S. ampuladagi modda 40 ml sterallangan suvda eritilsin.

Venaga sekin yuborilsin.

#

Rp: aetheres pronarkozi 100,0

Noingalayatsion narkoz

Noingalyatsion narkozda narkotik modda venaga yuboriladi. Ayrim hollardagina qorin bo'shlig'iga, og'iz orqali, muskullar orasiga, to'g'ri ichakka yuborish mumkin, lekin bunda narkotik moddaning organizmga tushishini tartibga solish qiyin. Noingalyatsion narkoz kichik operatsiyalar va og'riq qo'zg'atadigan proseduralarni bajarishda og'riq sezdirmaslik va bemorni qisqa muddat behush qilish uchun, efir va azot (II)-oksid bilan qo'shib boshlang'ich narkoz hosil qilish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga asosiy narkoz sifatida ham ishlatiladi.

Narkozning boshlang'ich davri qisqa muddatli bo'lib, bosh aylanishi, kayfichog'lik, eyforiya, sergaplik, psixik faoliyatning asta-sekin tormozlanishi bilan nomoyon bo'ladi. Bemor tez uxlab qoladi, uyqu 15-20 minut davom etadi; vahima bosish, nafas qisishi va qusish kuzatilmaydi. Xirirg narkoz davrida xalqum va xiqildoq reflekslari saqlanib qoladi.Til tiqilib qolishining oldini olish uchun havo o'tkazuvchi jism yoki intubatsion trubka yuborilayotganda bu rafleksni nazarda tutish lozim.Aks holda larengospazm va bo'g'ilish ro'y berishi mumkin.Noingaltatsion narkotiklarni tez yuborish va konsentratsiyasini oshirish mumkin emas.Buni hamshira yodida tutishi lozim.Bunday hollarda buyraklar va jigar shikastlanishi mumkin. Ularni dozalash qiyin.

Hozirgi vaqtda noingalyatsion narkoz uchun geksinal va teopental natriy ishlatiladi.

Geksenal (Nexenalum) oq kristal poroshok bo'lib quruq holda ampulalarda 1,0 dan chiqariladi. Foydalanishdan oldin ampulaga shpris bilan 10 ml sterillangan distellanga suv qo'shiladi va 5-7 ml dan venaga asta-sekin yuboriladi.

Tiopental natriy (Tiopentalum natrium) oq poroshok bo'lib ampulalarda 0,5-1,0 dan chiqariladi. Narkoz uchun (qo'llanishdan oldin)25%li eritma tayyorlanadi. Narkoz 20-25 minut davom etadi.

Ko'pincha aralashma narkoz qo'llaniladi. Palatada bemor venasiga geksenal yuboriladi- o'sha zahoti narkoz ro'y berib,15-20 minut davom etadi. Bu vaqtda bemor operatsiya xonasiga olib kiriladi va nafas yollari orqali (ingalyatsion efir yuborib, narkoz davom ettiriladi 9bemor ruhini ko'p shikaslantirmaslik maqsadida shunday qilinadi.)

Narkotik va narkotik bo'lmagan anal'getiklar- og'riqni kamaytiruvchi moddalar.

Bu gruppaga og'riq kamaytiruvchi va yo'talga qarshi ta'sir etuvchi opiy (Opium), ya'ni ko'knori gruppasidagi moddalar va ular o'rnini bosuvchi sintetik preparatlar kiradi.

Opiy va uning preparatlari markaziy nerv sistemasining og'riq sezish, nafas olish va yo'tal markazlariga tanlab ta'sir ko'rsatadi. Ular turli og'riqlar (operatsiyadan keyingi og'ria, jarohatlar, ichki a'zolarining yallig'lanish protsesslari-peritonit, plevrit, xolesistik, ichak sanchig'i va buyrak toshi kasalliklarning xuruji)ni kamaytirishda, bemor og'riq zo'ridan uxlay olmaganida, ich ketganda va boshqa hollarda ishlatiladi. Opiy va uning preparatlari nafas olishni susaytirishi sababli 5 yoshgacha bolalarga buyurilmaydi (kattaroq yoshdagi bolalarga faqat juda zarur bo'lganda beriladi). Organizmi o'ta zayif, nafas olish markazining faoliyati susaygan keksalarga ham buyurilmaydi. Opiy preparatlari muttasil qo'llanganda odam ularga o'rganib qoladi. Bu holat narkomaniya deyiladi.

Opiy ko'knori har xil turlarining pishmagan boshchasini tishlab olinadigan shiraning quritilganidir. Uning tarkibida 20 ga yaqin alkaloid (azoti bor ishqolsimon moddalar)-morfin (morphinum), kodein (Godeinum), papaverin (Papaverinum) va boshqalar bo'ladi.

Opiy poroshogi (Opium pulveratum) o'ziga xos hidli och qo'ng'ir poroshok bo'lib, tarkibida 10% morfin bor. Poroshok, tabletka va shamchalar holatida (to'g'ri ichakka) ishlatiladi. Kattalar uchun bir martalik doza 0,01; 5 yoshdan katta bolalarga yoshiga qarab, har ichishga 0,005 dan buyuriladi.

Opiy tabletkasi (opium abuletta) qo'ng'ir rangli bo'lib, hidi o'ziga xos. Tarkibida 0,01% opiy bor.

Quruq opiy ekstrakti (Extragtum opii siccum) qo'ng'ir rangli poroshok bo'lib, suvda eriganda ta'mi achchiq eritma hosil qiladi. Tarkibida 20% morfin bor. Poroshok, pilyulyava shamchalar holida (har gal 0,01-0,02 dan) ishlatiladi.

Oddiy opiy nastoykasi (Tinctura opii simplex) qizg'ish- qo'ng'ir tiniq suyuqlik bo'lib, o'ziga xos hidga ega. Tarkibida 1% morfin bor. Kattalarga ichish uchun 5-10 tomchidan, 5 yoshdan katta bolalarga 1-5 tomchidan buyuriladi.

Opiyning barcha preparatlari qulflangan holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Omnopon (Omnoponum seu pantoponum) opiy alkaloidlarining xlorid tuzlari aralashmasi bo'lib tarkibida 48% dan 50% gacha morfin asosi va 32-35% gacha boshqa alkaloidlar bor. Omnopon suvda eriydigan och kulrang poroshokdir. Morfin qanday holda ishlatilsa, omnopon ham xuddi o'sha hollard ishlatiladi. Og'riq qoldiruvchi va spazmolitik ta'siriga ega. 0,01-0,015 dan poroshok va shamchalar holida va 1% li, 2% li eritmasi ampulalarida teri ostiga yuboriladi (A spiskaga kiradi)

R e t s e p t l a r n a m u n a s i :

Rp: Sol. Omnoponi 2%-1,0

D.t.d. №6

S. 0,5-1,6 da teri ostiga yuborilsin.

RP: Omnoponi 0,01

D.t.d. №10 in tab.

S. 1 tabletkada kuniga
ikki marta ichilsin.

Morfin morfin gidrokslorid (Morphini hydrochloridum) holida ishlatiladi, oq kristall poroshok bo'lib suvda eriydi.

Morfin og'riq kamaytiruvchi dorilar gruppasining asosiysidir. Og'riq zo'rliigidan bamor uxlay olmaganda, morfin bir oz uxlatuvchi ta'sir ko'rsatadi. Og'riqni kamaytirish uchun jarohatlarda, xavfli o'smalar, miokart infarktida, operatsiyga tayyorlash va operatsiyadan keyingi davrda, kuchli og'riq bilan bog'liq uyqusizlikda, ba'zan kuchli yo'talni bosish uchun, shuningdek, shokning oldini olish va unga qarshi kurashda ishlatiladi, 1% li eritmada 1 ml dan teri ostiga yuboriladi, poroshogi 0,01-0,02 dan ichiladi, ba'zan 0,001-0,005 dan shamchalar (Suppositorii) holida ishlatiladi.

Morfin teri ostiga yuborilganda eyforik holat ro'y beradi. Bunda odamning zini engil, bamaylixtir his qiladi, ichki va tashqi ta'sirlarni sezish susayadi. Bunday holat bora-bora odamni morfinga o'rgatib qo'yadi. Natijada og'ir narkamaniya-morfinizm, uning oqibatida esa surunkali zaharlanish ro'y berishi mumkin.

Morfindan zaharlanganda nafas olish susayishi, hushsizlik, ba'zan qusish, siydik va ichning to'xtab qolishi kuzatiladi. Bunda oshqozonni kunida bir necha marotaba 0,1% li kaliy permanganat yoki 0,5% li tannin eritmasi bilan qayta qayta yuvish lozim (preparat organizmga qaysi yo'l bilan tushgandan qat'iy nazar, oshqozonni yuvish lozim, chunki morfin va shu gruppadagi barcha moddalar me'da shilliq qavati orqali ajraladi). Shuningdek, tuz surgi buyurish, karbogen (Carbogenum-kislorodning 5-7% karbonat angidrid bilan aralashmasi) hidlatish, lonelin (Lobelinum), sititon (Cytitonum), atropin (Atropinum), kofein (Coffeinum) yoki kamfora (Camphora) dan in'eksiya qilib nafas va yurak -tomir sistemasini qo'zg'atish lozim; nafas to'xtaganda suniy nafas oldiriladi. Qulflog'liq holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Promidol (Promidolum) morfin o'rnini bosuvchi preparat bo'lib sintetik yo'l bilan olinadi. Ta'mi achchiq oq kristal poroshok. Preparat eritmaları uzoq muddat buzilmaydi. Promedol og'riq qoldiradigan aktiv preparat bo'lib, markaziy nerv sistemasiga ta'sir etishiga ko'ra morfinga yaqin turadi. Nafas markazining qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi. Uxlatadigan ta'sir ko'rsatadi. Akusherlikda tug'ishni osonlashtirish va og'riqni kamaytirish uchun keng qo'llaniladi. Bunda preparatning 2% li eritmasi 1-2 ml dan teri ostiga yuboriladi. Promedol uzoq qo'llanilganda odam unga o'rganib qolishi va qumsab turishi mumkin.

Promedol 0,025 dan poroshok, tabletka holida va 1% yoki 2% li eritmasi 1 ml dan chiqariladi. Qulflog'liq holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Kodein (Codeinum). Opiy tarkibidagi alkaloidlardan biri. Ta'mi achchiq oq kristall poroshok. Ehtiyotlik bilan saqlash lozim (B spiskaga kiradi). Ta'sir jihatidan morfinga yaqin turadi. Kodein yo'talish markaziga tanlab

ta'sir ko'rsatadi va uni qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi. Asosan yo'talni to'xtatish uchun buyuriladi. Kodeinga ruju qilish va qumsash- kodeinizm hollari ham uchrab turadi. Poroshok, tabletka, eritmalari kattaligi 0,01-0,02 dan, ikki yoshdan oshgan bolalarga yoshiga qarab 0,001-0,0075 g dan ichiriladi.

Etilmorfin, gidrokslorid, dionin (Aethylmorphini hydrochloridum) kodeinning sintetik o'rinbosari. Ta'mi achchiq, oq kristal poroshok. Organizmga umumiy ta'siri jihatidan kodeinga yaqin turadi. Surunkali bronchit, o'pka sili va boshqalarda, yo'tal tutganda ishlatiladi.

Kattalar uchun bir martalik dozasi 0,01-0,02g. Ikki yoshdan oshgan bolalarga yoshiga qarab 0,001-0,075g dozadan buyuriladi.

Ko'z kasalliklarini davolashda 1-2% li eritmasi tomchi va maz holida ishlatiladi.

R e t s e p t l a r n a m u n a s i:

Rp:Sol morphini hydrochlorid 1%-1,0

D.t.d.№6 in amp.

S. Og'riq vaqtida 1 ml dan teri ostiga yuborilsin.

#

Rp; Codeini 0,015

Natrii hydrocarbanatis 0,3

D.t.d.№6 in tab

S.Yo'tal tutganda 1 tabletkadan kuniga ikki marata ichilsin.

Rp:Arthymorphini hydrochloridi 0,01

Sir Althaea

Aquae destelatae aa 50,0

M.D.S. 1 choy qoshiqdan kuniga 2-3 marata ichilsin (3 yashar bolaga).

Narkotik bo'lmagan anal'getiklar

Bu gruppadagi moddalar bir yo'la o'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi va issiqni kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ular ta'sirida qon tomirlari kengayadi, odam qattiq terlaydi, ko'p issiqlik ajralib ta'natemperaturasi pasayadi, og'riq kamayadi. Sanchiq tutganda, jarohat bilan bog'liq og'riqlarda bu preparatlarning nafi kamroq. Ularga odam o'rganib qolmaydi, uxlatuvchi ta'sir ko'rsatmaydi, yo'talish va nafas olish markazlariga ta'sir qilmaydi.

Amidopirin (amidopyrinum), sinonimi piramidon (Pyromidonum) oq poroshok bo'lib, issiq tushuruvchi, og'riqni kamaytiruvchi va yallig'lanishga qarshi dori sifatida, bosh og'riganda, nevrалgiyalar, artritlar, miozitar, xoriya va bo'g'imlar revmatizmida, margumush, smop preparatlari va fosfororganik moddalardan zaharlanganda ishlatiladi. Kuniga 3-4 marta 0,25-0,3 dan alohida yoki kofein, finasitin, natriy barbamil va boshqa preparatlarga qo'shib ichiladi. Revmatizmida kuniga 2-3 dan buyuriladi. B spiskaga kiradi. Tabletka holida 4% li eritmasi 5-10 ml dan ampulalarda chiqariladi.

Anal'gin (Analginum) oq poroshok bo'lib turli sabablar (miozit, nevrit, radikulit, migren va boshqalar) natijasida kelib chiqadigan og'riqlarda, isitma chiqqanda, gripp, revmatizim, xoreyada va boshqalarda ishlatiladi. Dozasini kasallik turiga qarab vrach belgilaydi. Poroshok holida 25% li eritmasi 1 ml dan, 50% li eritmasi 1-2 ml dan ampulalarda va 0,05 dan tabletka holida chiqariladi.

Butadion (Butadionum) oq poroshok bo'lib, revmatizimning o'tkir formasini, surunkali va ravmatoid, poliartridlarni davolashda, podagra, kichik xoreya va boshqalarda ishlatiladi. Poroshok va tabletka holida chiqarilib, 0,05 va 0,15 dan ichiladi. Yorug'lik tushmaydigan joyda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiska kiradi).

Fenasetin (Phenacetinum) oq poroshok bo'lib, nevrалgiyalarda, bosh og'riganda va yallig'lanish protseslarida isitma tushuruvchi va og'riqni kamaytiruvchi dori sifatida 0,25-0,5 dan kuniga 2-3 marta alohida yoki kofein, atsetilsalitsilat kislota va boshqalar bilan qo'shib ichiladi. Poroshok va tabletka holida 0,25 dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Atsetilsalitsilat kislota (Acidum acetylsalicylicum)- aspirin oq poroshok bo'lib, nevrалgiyalarda, migren, isitma bilan kechadigan kasalliklarda, revmatizmning o'tkir davrida ishlatiladi. 0,25-1 dan kuniga 3-4 marta ichish uchun alohida yoki kofein bilan qo'shib buyuriladi. Poroshok va tabletka holida 0,25-0,5 dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Natriy salitsilat (Natrium salicylicum) oq poroshok bo'lib, revmatizmida, revmatizm bilan bog'liq bo'lmagan artretlarda, akssudativ plevritda, nevrалgiya, meozit, xoreya va boshqalarda ishlatiladi. Bir marta

ichishlik dozasi 0,5-1. Ba'zan 10-15% li eritmasi 3-10 ml dan venaga yuboriladi. Poroshok va tabletka holida 0,25-0,5 dan chiqariladi.

R e t s e p t l a r n a m u n a s i:

Rp:Analgin

Amidopirini aa 0,025

M.f.Pulv D.t.d.№12

S. 1 poroshokdan kuniga 3 marta ichilsin.

Sezuvchi (Afferent) nerv uchlariga ta'sir etadigan moddalar

Bu gruppaga nerv uchlarini falajlab, ularni qitqlovchi va tashqi ta'sirlardan saqllovchi (adsorbtsiya qiluvchi, o'rab oluvchi, burishtiruvchi) moddalar kiradi. Novokain, kokain gidroxlorid, dikain, sovkaïn, xloretil mahalliy anestetik – nerv uchlarini falajlab qo'yadigan moddalardir.

Novokain (Novocainum) sentetik preparat bo'lib, suvda yaxshi eriydigan rangsiz poroshok. Suvdagi eritmasi 100⁰ da 20 minut davomida sterillanadi. Novokain infil'trasiya anesteziya o'tkazuvchi yo'l anesteziyaga orqa miya anesteziyasi uchun keng qo'llaniladi. Mahalliy anesteziya uchun qo'llanilganda, uning ta'sirini uzaytirish uchun har 2-5-10ml ga 1 tomchidan 0,1% adrenalin gidroxlorid (Adrenalinum hydrochloridum) qo'shiladi.

Poroshok holida va ampulalarda chiqariladi. 1-2 % li eritmasi o'tkazuvchi yo'l anesteziyasi uchun, 2-5% li eritmasi esa xirurgiya praktikasi orqa miya anesteziyasi uchun ishlatiladi. 0,25-0,5% li eritmasini venaga yuborish ham mumkin. Bunda uni juda sekin yaxshisi Natriy xlorid (Natrium chloridum) ning izotonik eritmasida yuborish lozim. Gipertoniya kasalligi qon tomirlari spazmasi, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasi, ekzema, keratit, glaukomava boshqalarni davolashda shu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Penitsilin, navakainda eritilsa, uning ta'siri uzoqqa cho'ziladi. Novokain yorug'lik tushmaydigan joyda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Kokain gidroxlorid (Cocainum hydrochloridum) oq kristal poroshok bo'lib, Janubiy Afrikada o'sadigan kokain o'simligi barglaridan hamda sintetik yo'l bilan olinadigan alkaloid. Ta'mi achchiq, tilga tekkizilganda "jonsiz" qilib qo'yadi. Suvda yaxshi eriydi, eritmalarini sterillash mumkin. Yuqoridagidagidek ta'sir etgani uchun ko'z konyuktivasi va hox pardasini (1-3% li eritmasi), og'iz, burun, tomoq shilliq qavatlarini (2-5% li eritmasi) tish pul'pasini anesteziya qilishda, rinit va konyunktivitlarni davolashda (0,2-1,2% li eritmasi) tomchilar va mazlar tarkibida ishlatiladi. Preparatning kamchiliklaridan biri uning organizmgatez so'rilib ketishidir. Kokain kichik dozalarda bir oz qo'zg'alish, xushchaqchaqlik, bardamlik, vaqtichog'lik (eyforiya) hissiyatini tug'diradi. Preparat bir necha bor buyurilganda, odam unga o'rganib qolishi- banga bo'lib qolishi mumkin. Bunday holat kokainizm deyiladi.

Poroshogi 0,03 dan 2% li eritmasi ampulalarda 1 ml dan chiqariladi. Yorug'lik tushmaydigan joyda qulflog'lik holdasaqlanadi (A spiskaga kiradi).

Dikain (Dikainum) oq yoki sarg'ish, hidsiz, kristal poroshok bo'lib suvda 1:10 nisbatda eriydi. Eritmalari 100⁰ da 30 minut davomida sterillanadi. Kokainga nisbatan ikki baravar, novokainga nisbatan o'n baravar zaharli bo'lgani uchun kamishlatiladi. 1-3% li eritmasi k'oz, tomoq, burun shilliq qavatlarini anesteziya qilish uchun ishlatiladi. Poroshok holida chiqariladi. Qulflangan holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Sovkaïn (Sovcainum) oq kristal poroshok bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Novokainga nisbatan 10-15 marta aktivroq bo'lib, ta'sir muddati ham uzoqroq. Organizmdan sekinlik bilan chiqib ketadi. Asosan 0,5-1% li eritmasi orqa miya anesteziya qilish uchun juda ehtiyotlik bilan ishlatiladi. Bir martalik yuqori dozasi kattalar uchun 0,01 (1% li eritmasidan 1ml).

Poroshok holida, 0,5% va 1% li eritmasi esa ampulalarda 1ml dan chiqariladi. Qulflangan holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Xloretil (Aethyli chloridum) tiniq, rangsiz, oson uchuvchan, g'alati hidli, suvda yomon eriydigan suyuqlik bo'lib, qaynash temperaturasi 12-13⁰ . Tez ta'sir kuchli narkotik modda. Ba'zan mahalliy anesteziya qilish uchun ishlatiladi. Teri va shilliq qavatlariga tushganda, ularni muzlatib, "jonsiz" qilib qo'yadi. Natijada kichikroq yuzaki operatsiya qilish mumkin bo'ladi.

Ampulada va maxsus idishlarda 30 ml dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Nerv sistemasini tinchlantiradigan dori moddalar. Yurak qon tomirlarini tinchlantiradigan, qon ketishini to'xtatadigan dorilar.

Uxlatadigan dorilar

Uyqu- organizmni himoya qilish tadbiri, chunki u nerv hujayralarini uzoq vaqt qo'zg'atish natijasida charchashdan saqlaydi. Pavlov ta'rifiga ko'ra, uyqu bosh miya po'stlog'ining ko'p qismiga va po'stloq ostidagi bolimlarga yoyiladi tarqoq ichki tormozlanishdir. Po'stloq hujayralari himoya –tormozlanish holatiga o'tish xususiyatini yo'qotganda va bu holat hujayralarning o'limiga olib kelishi xavfi tug'ilganda uyqu dorilari buyuriladi. Ular uyqusizlikda ko'pgina kasalliklarni, gipertoniya, oshqozon yarasi va boshqalarni davolashda bu dorilar yaxshi natija beradi.

Uxlatadigan dorilar ta'siridagi uyqu, ta'biy uyquga yaqin turadi. Ular katta dozalarga narkoz holatiga olib kelishi mumkin.

Bu gruppaga barmabil, fenobarbital kabidorilar kiradi.

Barmabil (Barmamylum) oq, amorf, hidsiz, suvda va spirtida yaxshi eriydigan poroshok bo'lib, ineksiya qilinadigan eritmalari aseptik sharoitda tayyorlanadi. Qaynatilganda parchalanib ketadi. Uxlatadigav dori sifatida (uyqu 6-8 soat davom etadi) hamda zaharli ximikatlarda zaharlanish ro'y berganda tinchlantiruvchi va talvasaga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Barbamil poroshok va tabletka holida 0,1-0,2 dan chiqariladi. Og'zi yaxshi berkitilgan bankalarda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Fenobarbital (Phenobarbitallum. Sinonimlari: lyuminal, barbifen, somonal va boshqa) ta'mi achchiqroq va hidsiz, kristal oq poroshok. Sovuq suvda deyarli erimaydi. Spirt va ishqorlar eritmasida oson eriydi. Uxlatadigan vositasifatida, gepertoriyada qon bosimini pasaytirish uchun, epelepsiya (quyonchiq kasalligi), xoreya va spastik falajlarni davolashda ishlatiladi. Tomirlar spazmi (migren- stenokardiya)da, xlororganik, zaharli ximikatlarda, simob preparatlaridan zaharlanganda kichik dozada ishlatiladi. Fenobarbital uzoq qo'llanadiga ruhiy ezilish, uyquchanlik, o'zini yomon his qilish, bosh og'rig'i qon o'zgarishi va boshqa holatlar bo'lishi mumkinligini yodda tutish lozim.

Fenobarbital poroshok va tabletka holida 0,05 va 0,1 dan shuningdek, tabletkada boshqa preparatlar bilan aralash holda chiqariladi. Og'zi yaxshi berkitilgan to'q rangli shishabankalarda ehtiyotlik bilab saqlanadi (b spiskaga kiradi)

Xloralgidrat (Chloral hydras, B spiskaga kiradi) suvda va spirtida juda oson eriydigan, g'alati hidli va o'ziga xos bir oz achchiq mazali tiniq kristal yoki mayda kristal poroshok bo'lib, havoda sekin tarqaladi, gigroskopik. Terapevlik dozasi tinchlantiruvchi, uxlatuvchi va analgezik ta'sir etsa, katta dozasi narkotik xususiyatga ega. Markaziy nerv sistemasiga ta'sir etadi. Kichik dozalarda tormozlanish protseslari susayadi, katta dozalarda ta'sirlanish protseslari pasayadi, o'rtacha hujayralarda nerv hujayralari ta'sirlantirishini juda susaytiradi. Tinchlantiruvchi vosita holatida 0,2-0,5 dan, uxlatuvchi vosita holatida bir ichish uchun 0,5-1,0 dan (kattalarga) tayinlanadi.

Xloralgidlar psixik qo'zg'alishda va spazmofiliya, qoqshol, epelepsiya muskullar tortishishiga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Bolalarga yoshiga qarab bir ichishda 0,05-0,75 dan tayinlanadi. Xloralgidlar ko'pincha o'rab oladigan moddalar bilan birga klizma qilish uchun tayinlanadi. 15-20 minutdan keyin uyqu bosadigan va uyqu 6-8 soat davom etadi.

Xloralgidrat 0,5-0,75 va 1,5 dan poroshok va tabletkalar holida chiqariladi. Eng katta dozasi 2,0 (6,0). Qorong'i va salqin joyda saqlanadi, yurak-tomir sestemasi, jigar va buyrak holati avjga chiqqan holatda ishlatilmaydi.

R e t s e p t n a m u n a s i :

Rp: chlorali hydratis 1,0
Mucilaginus amyli
Aq. Destellatae aa 25,0
M.D.S. bir marta klizma uchun.

#

Rp; Chlorali hydratis 0,5
Des. Amyli tritia 50,0
M.D.S. 5 yoshlik bolaga bir marta klizma uchun.

Sedativ moddalar

Tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan moddalar (natriy bromid va kaliy bromid) sedativ moddalardir. Ular tormozlanish prosessini kuchaytirib yoki qo'zg'alish prosessini susaytirib nerv faoliyatining boshqarilishiga ta'sir etadi. Brom preparatlari qo'zg'alish va tormozlanish proseslari o'rtasidagi muvozanatni tiklashi mumkin.

Ularining bu ta'siri ayniqsa markaziy nerv sistemasining qo'zg'aluvchanligi oshganda yaqqol seziladi. Bromidlar nevraleniya, nevroz, isteriya, epilepsiya va xoriyada qo'llaniladi. Bromidlar uzoq qo'llanilganda ulardan zaharlanish- bromizm ro'y berishi mumkin. Bunda toshma paydo bo'ladi, xorg'inlik, xotira pasayishi, ozish yo'tal, tumov,konyunktivit kuzatiladi. Bromizmni kamaytirish uchun osh tuzi va sho'r taomlar buyuriladi hamda ko'p suvtayin qilinadi.

Natriy bromid (natrium bromidum) sho'r, hidsiz, oq kristal poroshok bo'lib havo shimadi. Suvda va spirtida eriydi. Eritmalari (miksturalari), tabletkasi ichiladi, eritmasi venaga yuboriladi.

Natriy bromid poroshol va tabletka holida 0,15 va 0,5 dan, shuningdek 5,10 va 20% li eritma ampulalarda 10ml dan chiqariladi.

Kalit bromid (Kalium bromidum) juda sho'r oq yaltiroq kristal bo'lib, suvdaeriydi, spirtida yomon eriydi. Havoda turg'un. Poroshok yoki tabletkasi 0,15 dan ichish uchun buyuriladi. Bexterev drajesi tarkibiga kiradi. Nerv sestemasini tinchlantiruvchi vosita sifatida kuniga 1-2 drajedan beriladi.

Poroshok va tabletka holida 0,5 dan qilib flakonlarda 25 tabletka (draji)dan chiqariladi.

R e t s e p t n a m u n a s i :

Rp: sol natiy bromidi ex 6,0-200,0
D.S. 1-2 osh qoshiqdan yotishdan oldin ichilsin

Rp; Natrii bromidi
Kalii bromidi aa 4,0
Aq distellatae 200,0
M.D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

Yurak glikozidlari

Bu gruppaga strofantin, korglikon, konvolyatoksin,adonozit va boshqalar kiradi. Ular angishvonagul, adonis, marvaridgul, sariq choy, strofant, sambitgul va boshqa o'simliklar tarkibida bo'ladi. Yurak glikozidlari, yurak muskullariga tanlab ta'sir ko'rsatadi, yurak qisqarishini kuchaytiradi,sistola qisqarib, diastola uzayadi va to'laroq bo'ladi, yurak ritmi sekinlashadi, yurak qorinchalariga qon kelishi yaxshilanib, yurakning zarb hajmi kattalashadi. Bu preparatlarning toksik dozasi aritmiya qoz bosimining ortishi va yurak faoliyatining to'xtab qolishi (blokadaga) sabab bo'lishi mumkin.

Angishvonagul (Digitalis B spiska) ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, tibbiyotda quritilgan barglari va undan tayyorlangan preparatlar ishlatiladi. Barglarida glikozitlar, saponinlar va boshqa moddalar bo'ladi. Glikozitlar organizmda turg'un bo'lib, to'qimalarda sekin yig'iladi va kuchli terapevtik foyda beradi. Angishvonagul preparatlari 8-12 soatdan keyin ta'sir etadi, organizmdan sekin chiqariladi va yuqori komulyativ xossaga ega bo'ladi. Surunkali yurak yetishmovchiligi (dekompensatsiya) ning har xil darajalarida, mitral poroshoklarda ; karonarno-kardiosklerozda, gipertoniya kasalligida va miokard distrofiyasida ishlatiladi.

Angishvonagul barglaridan suvli damlama (Infusum foliorum digitalis) tayyorlanadi, ya'ni 0,5-1,0 barglari 180 ml qaynoqsuvda damlanadi va katta yoshdagi odamlarga 1 osh qoshig'idan kuniga 3-4 marta ichish buyuriladi. Barglardan 0,05 dan poroshok va tabletkalar ham tayyorlanadi.

R e t s e p t n a m u n a s i :

Rp:Inf. Fol Digitalis 0,5-180,0
Sir Simplikis 20,0
M.D.S. 1 osh qoshig'idan kuniga 3-4 marta ichilsin.

Rp;pulv. Fol. Digitalis 0,05
Sacchari 0,3
M.f. pulv.
D.t.d. №12
s. 1 poroshokdan kuniga 3-4 marta ichilsin

Strofantin (Strophanthinum) Strofantin turg'un bo'lmay, ichilganda ham kam ta'sir ko'rsatadi. Komulyativ xossaga ega. O'tkir va surunkali yurak yetishmovchiligida buyuriladi. Strofantin juda aktiv va tez ta'sir etishi sababli dozasini belgilash va ishlatadigan hollarni aniqlashda ehtiyot bo'lish kerak. Yurak va

tomirlarda keskin organik o'zgarishlar bo'lganda, o'tkir meokardit, endokardit, kardiosklerozda strofantib buyurib bo'lmaydi.

1,0 ml 0,05% li eritmasi 10-20 ml 22-40% li glukoza eritmasida 5-6 minut davomida asta-sekin venaga yuboriladi. Tez yuboriladigan bo'lsa shok ro'y berishi mumkin.

Strofantin k ampulalarda 0,05% li eritma holida 1 ml dan chiqariladi. Yorug'lik tushmaydigan joyda qulflog'lik holda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Konvollyatoksin (Convallatoxinum) kristal poroshok bo'lib, suvda (qiyin) va spirtida eriydi. Marvaridgul barglari va gullari (folia seu flos Convallaria majalis) dan olinadi. Venaga yuborilganda, yurak faoliyatiga tez va kuchli, teri ostiga yuborilganda esa sekinroq ta'sir etadi, aktivligi ham kamroq bo'ladi. Ichirilganda aktivligi keskin kamayib ketadi. Venaga yuborilganda ta'siri 5-10 minutdan keyin boshlanib, 20-22 soat davom etadi. Strofantin ishlatilgan hollarda bu preparat ham ishlatiladi. Venaga 10-20 ml 20% yoki 40% li glukozaga qo'shib, asta-sekin (5-6 minut davomida) yuboriladi. Tez yuborilganda shok ro'y berishi mumkin.

0,03% li eritmasi ampulalarda 1 ml dan chiqariladi. Yorug'lik tushmaydigan joyda saqlanadi (A spiskaga kiradi).

Tomirlarni kengaytiradigan moddalar

Bu grupp preparatlariga amilnitrit, nitroglitsirin, eugillin, papaverin, dibazol, magniy sulfat kiradi. Bu moddalar qon tomirlari spazmasida ishlatiladi.

Amilnitrit (Amili nitris, b spiskaga kiradi) och sariq rangli tiniq suyuqlik bo'lib, to'q sariq rangli shishadan tayyorlangan ampulalarda 0,5 ml dan chiqariladi. Shuning uchun preparat ampulasining ro'molcha, yoki bir bo'liak paxtaga o'rab sindirib, amilnitrit bug'i bilan nafas olish kerak. Amilnitrit bug'i tez va qisqa muddatda ta'sir etishi tufayli stenokardiya xurujlarini bartaraf etish uchun buyuriladi.

Amilnitrit ishlatilganda qonda metgemoglobin hosil bo'ladi. Uning shu xususiyatidan foydalanib, sianit kislotasi va uning tuzlaridan zaharlanish hollarida davolash maqsadida undan foydalaniladi. Hosil bo'ladigan metgemoglobin avval to'qimalardagi nafas olish fermentlarini blokada qilib qo'yadigan sianidni biriktirib oladi. Nafas olish fermentlari ajralib chiqib, kislorodni o'zlashtirib olishi va to'qimalarning nafas olish proses tiklanishi mumkin.

Nafas olish uchun bir martalik katta dozasi 0,1 ml (6 tomchi) bir sutkalik eng katta dozasi 0,5 ml (30 tomchi).

Nitroglitsirin (Nitroglycerinum) tiniq, moysimon suyuqlik bo'lib, suvda yomon eriydi: spirt, efir, xloroformda yaxshi eriydi. Spirtidagi eritmasi va tabletkalari ishlatiladi. Spirtidagi 1% li eritmasi (Solutio nitroglycerini) tiniq suyuqlik.

Nitroglitsirin tabletkalari (Tabulettae nitroglycerini) tarkibida 0,0005 nitroglitsirin bo'ladi. Bu doza 1% li eritmasining taxminan 3 tomchisiga teng. Ishlatilishi: nitroglitsirin 1% li eritmasidan 2-3 tomchisi tilga tomiziladi yoki bir bo'lak qandga tomizilib, to'la so'rilib ketguncha til ostiga qo'yib shimiladi. Tabletkasi (1/2-1 tabletkasi) til ostiga qo'yib shimiladi. U tez so'rilib, yaxshi nav beradi. Stenokardiya ishlatiladi. Qon bosimi past kishilarga buyurib bo'lmaydi.

1% li eritmasi 5-10 ml dan shisha idishlarga, tabletkasi (0,5 mg) naychalarga 40 tadan joylab chiqariladi.

Preparat bilan ishlayotganda ehtiyot bo'lish lozim, chunki portlash ro'y berishi mumkin. Og'zi yaxshi yopilgan idishlarda, olovdan uzoq joyda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Validol (Validolum) mentol hidli yog'li suyuqlik bo'lib, markaziy nerv sistemasini tinchlantiradi va og'iz bo'shlig'idagi shiliq parda reseptorlarini qitiqlashi natijasida yurak va miya tomirlarini reflektor kengaytiradi.

Eritma holida (4-5 tomchi validolni andga tomizib ichish uchun) va 0,06 dan tabletkalarda chiqariladi. Yurak va miya qon tomirlari qisilganda, nevroz, isteriya, dengiz va havo kasalliklarida qusishning oldini olish vositasi sifatida validol tabletkasi til ostiga quyiladi va butunlay erib ketguncha saqlanadi.

R e t s e p t n a m u n a s i:

Rp: Validoli 0,06

D.t.d. №10

S. 1 tabletkadan til ostiga quyilsin.

Eufillin (Euphylinum) oq yoki sarg'ish kristal poroshok bo'lib, suvda yaxshi eriydi. U yurak toj tomirlarini kengaytiradi, bronxlar muskullarini keskin bo'shashtiradi, siydik haydalishini yaxshilaydi. Bronxial astma, stenokardiya ishlatiladi. Yurak astmasi insul'tni davolashda ayniqsa yaxshi foyda beraadi.

Eufillinni ichish, muskullar orasiga yoki venaga yuborish, rektal shamchalar va mikroklizmalar holida qo'llash mumkin. Teri ostiga yuborilmaydi. 0,1-0,2 dan kuniga 2-3 marta (ovqatdan so'ng) tabletkalaridagi yoki kapsulalaridagi 0,1-0,2 dan kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin ichiladi. 12% li eritmasi muskullar orasiga 2-3 ml dan yuboriladi. 2,45 li eritmasi 10-20 ml 20% li yoki 40% li glukoza eritmasiga qo'shib venaga asta-sekin (4-6 minut davomida) 5-10 ml dan inyeksiya qilinadi. Rektal shamchalar tarkibida 0,2-0,4 eufilin bo'ladi. Mikroklizma qilish uchun 0,3-0,5 preparat 20-25 ml iliq suvda eritiladi.

Poroshok va tabletkalar holida 0,1 dan, shamchalar holida 12% li eritmasi ampulalarda 2 ml dan (muskul orasiga yuborish uchun) 2,4% li eritmasi esa 10 ml dan (venaga yuborish uchun) chiqariladi.

Yorug'lik tushmaydigan joyda ehtiyotkorlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Papaverin (Papaverinum) opiydan olinadigan olkoid. Sintetik yo'l bilan ham olinadi. Papaverin gidroklorid (Papaverini hydrochloridum) nom bilan chiqariladi. Taxirroq oq kristal poroshok. Suvda eriydi (1:40); eritmasi 100⁰ da 30 minut davomida sterillanadi. Qon tomirlari torayganda (gepertoniya, stenokardiya, migren, endarteritda), qorin bo'shlig'idagi organlar, silliq muskullarining spazmasida: xolestsistit, spastik kolitda, siydik yo'llari spazmasida, bronxial astmada ishlatiladi. 0,02-0,05 dan kuniga 2-3-4 marta poroshok yoki eritma holida ichiriladi. 1-2% li eritmalari 1-2 ml dan teri ostiga yuboriladi.

Poroshok va tabletkasi 0,015 va 0,02 dan 2% li eritmasi ampulalarda 2 ml dan chiqariladi. Yorug'lik tushmaydigan joyda ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Dibazol (Dibazolum) sho'rtang hamda taxir, issiq suvda yaxshi eriydigan oq kristal poroshok bo'lib, tomirlarni kengaytiruvchi, spazmolitik, orqa miya funksiyasini stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. Gipertoniya kasalligining krizlarida, yurak yetishmovchiligida, ichki organlar silliq muskullarining spazmasi (me'da yarasi, ichak spazmalari va boshqalarda) ishlatiladi. Kattalarga kuniga 0,02 dan 3 marta yoki 0,05 dan 2 marta ichiriladi. 0,05 li eritmasi kuniga 1 marta teri ostiga yuboriladi. Gipertoniya kasalligining krizi ro'y berganda 0,5 li eritmasi kuniga 3-4 marta 2-4 ml dan venaga yuborish mumkin.

Poroshok va tabletkasi 0,02 va 0,005 dan 0,5% li eritmasi ampulalarda 2 ml dan chiqariladi. Ehtiyotlik bilan saqlanadi (B gruppaga).

Magniy sulfat (Magnesi sulfat) suvda yaxshi eriydigan oq kristal poroshok bo'lib, tinchlantiruvchi, tirishishga qarshi, spazmolitik, ichni yumshatuvchi va o't haydovchi dori sifatida ishlatiladi. 25% li eritmasi 2-5-10 ml dan muskul orasiga yuboriladi; ichish uchun 10,0-30,0 dan buyuriladi. Poroshok holida hamda 25% li eritmasi 2,5, 10 va 20 ml dan ampulalarda chiqariladi.

Valeryana preparatlari

Valeryana preparatlari markaziy nerv sistemasining qo'zg'aluvchanligini susaytiradi, uxlatadigan moddalar ta'sirini kuchaytiradi, spazmolitik xususiyatga ega. Ular asabiylashish, uyqusizlik, yurak tomir sistemasini nevrozlari, oshqozon-ichak trakti spazmasi va boshqalarda ko'pincha tinchlantiruvchilar yurak dorilari bilan birga tinchlantiruvchi sifatida ishlatiladi. Geksaxloran, xlorpikrin, simob va mis preparatlari, anabazin sulfat va nikotindan zaharlanganda ham tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'l keladi.

Valeryana damlamasi (Infusum valeriana) kattalarga 180-200 ml suvga 6,0-10,0 va undan ortiq ildiz hisobida tayyorlanib 1 osh qoshiqdan bolalarga 1 desert qoshiqdan kuniga 3 marta ichiriladi. Turli yoshdagi bolalarga 100 mlga 2,0 hisobida tayyorlanib, 1 choy qoshiqdan kuniga 2-3 marta buyuriladi.

Korvalol (Corvalolum, b spiskaga kiradi) o'ziga xos hidli, rangsiz suyuqlik bo'lib, kuchli hayajonlanadigan nevrozlarda yurak toj tomirlarining kuchsiz spazmasida, taxikardiya, uyqusizlik, gipertoniya kasalligining har bir bosqichlarida, ichak spazmasida ishlatiladi.

15-20 tomchidan kuniga 2-3 marta ichish buyuriladi. Bir martalik ichish dozasi 40-45 tomchigacha oshirilishi mumkin.

To'q sarg'ish rangli shisha idish va kapelnitsalarda chiqariladi.

Pustirnik o'ti (Herba leonuri) tarkibida efir moylari, saponinlar, alkaloidlar va oshlovchi moddalar bo'ladi. Damlama, nastoyka yoki ekstrakt holatida nerv sistemasi kuchli ta'sirlanganda, yurak- tomir nevrozlarida, gipertoniya kasalligining boshlang'ich bosqichlarida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Damlama tayyorlash uchun 1 stakan qaynoq suvga 15 g o't solib damlanadi va bir osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Pustirnik nastoykasi (Tinctura leonuri) 70 % li spirtida 1 : 5 hisobidan tayyorlanadi. Nastoyka tiniq, yashil-qo'ng'ir rangli, achchiq mazali va kuchsiz hidli suyuqlik bo'lib, 25 mldan flakonlarda chiqariladi.

Retsept namunasi:

Rp; Inf. Herbae leonuri 15,0-200,0
D.S. qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

#

Rp; T-rae lekonuri 25,0
D.S. 30-50 tomchidan kuniga 3-4 marta ichilsin.

Magniy sulfat (Magnesii sulfas) rangsiz, ta'xir sho'r mazali, suvda yaxshi eriydigan kristal modda bo'lib, organizmga parenteral yo'l bilan kirganda, markaziy nerv sistemasini tinchlantiradi. Dozasiga qarab sedativ, uxlatuvchi va narkotik ta'sir qilishi mumkin. Umumiy tinchlantiruvchi ta'sir natijasiga arterial qon bosimini mirmuncha pasaytiradi.

Poroshok va 5,0-10,0-20,0 ml dan 20-25% li eritma holida ampulalarda chiqariladi:

R e t s e p t n a m u n a s i:

Rp: Sol magnisii sulfatis 25%-10,
D.t.d.№ 3 in amp.
D. S. 5-10,0 ml dan muskullar orasiga yuborilsin.

Aminazin (Aminazinum, B spiskaga kiradi) mayda kristal holdagi oq poroshok. Engil gigroskopik.,suvda yaxshi eriydi. U markaziy nerv sistemasiga ta'sir etib, kuchli sedativ (tinchlantiruvchi) effekt beradi.

Aminazin uxlatuvchi, narkotik moddalarning, analgetiklar va mahalliy anesteziyalovchi moddalarning ta'sirini kuchaytiradi. Tomir tortishiga qarshi qo'llanadigan vositalarning ta'sirini kuchaytiradi, lekin ayrim vaqtlarda uning ta'sirida tomir tortishi ham mumkin. Minazin qusishga qarshi kuchli ta'sir etadi va hiqichoqni to'xtatadi.

Aminazin kapilyarlarning va qon tomirlarining o'tkazuvchanligi susaytiradi. Alaxsirash, galyusinasiya, psixoz, nevroz, o'tkir alkogolik psixoz bilan kasallangan odamlarga vahima, xavotirlik, hayajonlikni susaytiradi yoki butunlay yo'qotadi. Shiddatli og'riqlarda analgetiklar bilan birgalikda, shiddatli uyqusizlikda barbituralar bilan birgalikda ishlatiladi.

Bundan tashqari, hur kasalligini davolashda, qichimali dermatozlar va boshqa kasalliklarda hamishlatiladi.

Aminazin ichish uchun draje holatida, muskullar orasiga va venaga yuborish uchun 2,5% li eritma holatida chiqariladi. Muskullar orasiga yuborishda 0,25-0,5% novakain eritmasi yoki natriy xloridning izotonik eritmasi bilan birga qo'shib, dumba muskulining juda ichkarisiga yuborish kerak. Venaga 10-20 ml 5% li, ba'zan 20% li va 40% li glyukoza yoki natriy xloridning izotonik eritmasida eritib, so'ng yuboriladi.

Aminazinnning dozasi organizmga yuborish usuliga, bemorning yoshi va ahvoliga bog'liq bo'ladi. Katta odam uchun eng yuqori dozasi: bir marta ichish uchun 0,3g bir sutkada 1,5 g. Muskullar orasiga yuborish uchun bir martalik dozasi 0,15 g sutkalik dozasi 1g; venaga har gal 0,1 g dan, bir sutkada 0,25 g yuborilsin. Bolalarga yoshiga qarab bir sutkada 0,01-0,02 g dan 0,15-0,2 g gacha yuborilsin. Aminazinni qabul qilgandan keyin bemor 1-2 soat yotishi kerak. O'rnidan sekin asta keskin harakatlar qilmasdan turishi kerak.

Jigar (seroz, gepatit va boshqalar), buyrak (nefrit) kasalliklarida, qon hosil qilluvchi organlarning funksiyasi buzilganda, bosh va orqa miya kasalliklarida, dekompensatsiyalangan yurak poroklarida organizmga aminazinni yuborish to'g'ri kelmaydi.

Aminazin draje holida 0,025 l-0,05 g va 0,1 g dan, ampulalarda 2,5% li eritma holida 1,2 va 5 ml dan chiqariladi.

R e t s e p t n a m u n a s i:

Rp: Drage Aminazini 0,25 №30
D.S. 1 drajedan kuniga 3 marta ichilsin.

Rp: Sol aminazini 2,5%-2,0
D.t.d.№6 in amp.
S. 20 ml 5% li glyukoza eritmasida eritilib, 1-2 dan
Venaga yuborilsin.

Rp: Sol aminazini 2,5%-2,0
D.t.d.№6 in amp.

S. 0,5% li novokaineritmasida eritilib, muskullar orasiga 5,0 dan yuborilsin

Qonning ivishiga ta'sir etadigan moddalar

Qonning ivishiga yordam beradigan preparatlar (kalsiy tuzlari, vikasol) *koakulyantlar*, qon ivishini susaytiruvchi preparatlar (geparin, girudin, natriy nitrat) *antikoakulyantlar* deyiladi. Antikoakulyantlar organizmda tromboz va emboliyaning oldini oladi.

Koakulyantlar

Koakulyantlar (qon ivishini tezlashtiruvchi preparatlar) oshqozon, o'pka va boshqa organlardan qon ketganda ishlatiladi, chunki ular ta'sirida quyqa hosil bo'lishi tezlashib, qon ivishini yaxshilaydi. Bu preparatlar tomirlar devorining o'tkazuvchanligini kamaytiruvchi vosita sifatida allergik kasalliklarda (bronxial astma, eshakem toshganda, zardob kasalligida), yallig'lanish protseslarida, nafas qisadigan zaharlovchi moddalar ta'sirida, o'pka shishganda, pnevmoniya, plevrit, nur kasalligi alomatlari bo'lganida va boshqa hollarda qo'llaniladi.

Bu gruppaga kalsiy preparatlari va vikasol kiradi.

Kalsiy xlorid (Calcii chloridum) rangsiz, namlikni yutadigan, sho'-taxir, mazali, suvda yaxshi eriydigan, tiniq kristal bo'lib, 10% li eritmasi choy yoki osh qoshiqda ichish buyuriladi va 5-10 mg dan venaga yuboriladi. Bunda juda ehtiyot bo'lish kerak, chunki teri ostiga tushib qolsa, keskin ta'sir ko'rsatib, to'qimalar nekrozda uchrashi mumkin. Shuning uchun bu preparat teri ostiga va muskullar orasiga yuborilmaydi.

Poroshok holida 10% li eritmasi ampulalarda 10 ml dan chiqariladi.

Kalsiy glyukonat (Calcii glyuconas) hidsiz va mazasiz, suvda eriydigan oq kristal poroshok bo'lib, venaga, muskullar orasiga yuboriladi va ichiladi. Kattalarga 10% li eritmasi 5-10 ml dan har kuni yoki 1-2 kun oralatib, bolalarga yoshiga qarab 1-5 ml dan har 2-3 kunda venaga yuboriladi. Qo'llanish oldidan ampulardagi eritma tana haroratigacha isitiladi. Kalsiy glyukonat eritmasi venaga asta-sekin (2-3 minut davomida) yuboriladi. Shprisda spirt qoldig'i bo'lmasligi kerak, ks holda kalsiy glyukonat cho'kma hosil qiladi.

Poroshok va tabletka holida 0,5 dan 10% li eritmasi ampulalarda 10 ml dan chiqariladi.

Vikasol (Vicasolum), **K vitamin** preparati shivobaxsh vosita sifatida o'tkir gipatitda, oshqozon va o'nikki barmoq ichak yarasidan, burundan, gemoroidal tugunlar va bachadondan qon ketganda, operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan so'ngi davrlarda ishlatiladi. Ichish uchun kuniga 0,015-0,03 dan, muskullar orasiga yuborishga 1% li eritmasi 1-2 ml dan yuboriladi.

Poroshok, tabletka holida 0,15 dan 25 dona va 1% li eritmasi 1 ml dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Geparin (Heparinum) suvda eriydigan oq poroshok bo'lib, qora mollarning o'pkasi va jigaridan olinadi. Qon ivishini susaytiradi. Qonga tushganda juda tez ta'sir etadi. 1% li eritmasi flakonlarda 5 ml dan chiqariladi, venaga 5 ml dan yuboriladi.

Dikumar (Dikumarinum A spiskaga kiradi) oq yoki och sariq rangdagi hidsiz mayda kristal poroshok bo'lib, suvda spirtida va efirda eriydi. Ishqorlarda erimaydi.

Dikumarin qon ivishini susaytiradigan antikoagulyantlar preparat, lekin geparinga o'xshab bevosita ta'sir etmaydi. Birinchi qabul qilgandan keyin 12-72 soatdan keyingina foydasi seziladi. Dikumarin komulyatsiya xususiyatiga (ichakdan so'rilgandan keyin jigarda to'planadi), shuning uchun u uzoq vaqt istemol qilinsa, har xil asoratlar qoldirishi (og'izdan, burun tomoqdan, oshqozon va ichaklardan qon ketishi) mumkin. Tromboz va emboliyaning oldini olish uchun ishlatiladi.

Dikumarin 0,1 dan tabletkalar holida chiqariladi va ichish uchun buyuriladi. Dikumarin bilan davolash statsionar sharoitda vrachlarning nazorati ostida olib boriladi.

Birinchi kuni 0,05-0,1 dan; ikkinchi kuni 0,15-0,2 dan; uchinchi kuni 0,05-0,1 dan 1 sutkada 3 marta ichish tayinlanadi.

Natriy sitrat (Natrii citras) rangsiz, suvda yaxshi eriydigan kristal poroshok. 4-5% li eritma holida qonni konservatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Antibiotiklar, ularning turlari, qo'llanilishi.

Mikroblarga qarshi moddalar

ANTIBIOTIKLAR

Antibiotiklar mikroorganizmlarning yashash qobiliyatini susaytiradigan moddalar bo'lib, mikroblar o'rtasida antagonizm-antibioz hodisasi natijasida mikroblar hujayrasida ishlanib chiqadi. Antibiotiklar bakteriostatik, bakterisid va bakteriolitik ta'sir ko'rsatadi. Ular organizmga og'iz orqali va parenteral yo'l bilan

yuboriladi. Antibiotiklarning dozasi ta'sir birliklari (TB-YD yedinisi deystviya) bilan ifodalanadi. Antibiotiklar, ularni hosil qiluvchi mikroorganizmlar yashab turgan kultura suyuqligida hosil bo'ladi, ba'zilari esa sintetik yo'l bilan olinadi. Bu preparatlarga bezilpenitsilin, ekmonovitsilin, bilitsilin, fenoksimetilpenitsilin, eritromitsilin, oleandomitsilin, fosfat, streptomitsin, levomitsin, tetrasiklin, gramitsitin va boshqalar kiradi.

Penitsilin (Penicillinum) mog'or zamburug'larining ba'zi turlaridan olinib, bir necha ko'rinishda chiqariladi. Jumladan kristal bezilpenitsilin- natriy tuzi (Benzylpenicillinum kalium cristallisatum) ko'proq ishlatiladi.

Bu ikkala preparat oq kristal poroshok bo'lib, suvda oson eriydi (spirtida ham eriydi). Qaynatilganda tez parchalanadi. Streptokoklar, gangrena, so'zak, meningit, sepsis qo'zg'atuvchilari va boshqalarga bakteriostatik, ayrim hollarda bakterisid ta'sir ko'rsatadi. Chechak, pleomiyaliy, grip va viruslari, sil kasalligi, brusellyoz va tifo qo'zg'atuvchilari ham ichak tayoqchalariga ta'sir etmaydi. Benzilpenitsilin preparatlari sutkasida 200000-1000000 TB dan muskullar orasiga yuboriladi. Bunda ular tez so'rilib, 20-30 minutdan so'ng qonda maksimal konsentratsiyasi hosil bo'ladi va 3-4 soat saqlanib turadi. Shu boisdan preparatlarning qondagi konsentratsiyasini bir me'yorda saqlash uchun uni takror yuborib turiladi. Ba'zi organizmlarga preparatlar yuborilganda noxush alomatlar ro'y beradi. Bunday alomatlar organizmi o'ta sezgir odamlarga ko'proq uchrab, bosh og'rig'i, isitma ko'rilishi va terida turli o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan o'tadi. Penitsilin qo'llangandan so'ng anfiyaktik shok ro'y berib, o'lim sodir bo'lgan hollar ham ma'lum. Penitsilin preparatlari ingalyatsiya usulida qo'llanganda allergik xarakterdagi faringit va laringit kuzatilishi, bronxial astma ro'y berishi mumkin. Odatda preparatlarning noxush ta'siri, ini berish to'xtatilgach yo'qoladi. Mobodo ular qo'llanganda og'ir allergik reaksiyalari ro'y bersa, adrenalin, demidrol, kalsiy preparatlari va boshqalar buyuriladi. Bronxial astma allergik kasalliklar bilan og'rikan va eshakem toshgan bemorlarga hamda boshqa antibiotiklarga nisbatan o'ta sezgir kishilarga penitsilin yuborish mumkin emas. Benzilpenitsilin va natriyli va kaliyli tuzlarining dozasi kasalliklarning xarakteri, bemorning yoshi va boshqalarga qarab belgilanadi. Kattalar uchun bir marta dozasi 50000 TB dan 200000 TB gacha, sutkasiga 200000-1000000 TB. Preparatlarning har 100000 TB ni 1 ml 0,25, 0,5%-1% li novokainda eritilib muskullar orasiga va teri orasiga yuboriladi. Benzilpenitsilinning natriyli va kaliyli tuzlari faqat vrach buyurgan hollarda ishlatiladi. Preparatlar og'zi mahkam berkitilgan shisha flakonlarda 100000:200000:300000:500000 va 1000000 TB dan qilib chiqariladi. Inyeksiya qilish uchun tayyorlangan eritmalarni darhol ishlatish kerak, zarur bo'lgan taqdirda salqin va qorong'i joyda 1-2 sutkagacha saqlash mumkin (B spiskaga kiradi).

Ekmonovotsilin (Ekmonovocillinum) benzilpenitsilin novokainli tuzining ekmolinning suvli eritmasidagi suspenziyasi. Yuborish oldidan 300000 yoki 600000 Tb benzilpenitsilinning novokainli tuzi va 2,5 yoki 5 ml ekmolning suvdagi eritmasini almashtirib tayyorlasnadi. penitsilin ishlatiladigan barcha hollarda sutkasiga bir marta yuboriladi.

Suspenziya quyidagicha tayyorlanadi: ekmolning solingan flakon qopqog'ini spirt bilan artib, sterillangan shpris va igna bilan teshilgach, 2,5-5 ml dan ekmolning olib, benzilpenitsilinning novokainli tuzi yoki natriyli yoki kaliyli tuzi aralashmasi bor flakonga solinadi. Flakon bir oz siljkitiladi va ana shunda sut kabi oq suspenziya hosil bo'ladi. Uni darhol dumaning tashqi yuqori qismiga kattalarga 300000-600000 TB bolalarga 100000-300000 Tb (har 1kg vazniga sutkasiga 10000-15000TB) dan yuboriladi. Preparat faqat muskullar orasiga inyeksiya qilinadi. Ekmonovotsilin ikkita alohida flakonda beriladi: birida benzilpenitsilinning novokainli tuzi, ikkinchisida ekmolning eritmasi bilan bo'ladi (B spiskaga kiradi).

Besilin (Becillinum) suvda juda kam, spirtida yaxshi eriydigan oq poroshok. Suv bilan aralashtirilganda turg'un suspenziya hosil bo'ladi. Preparat faqat muskullar orasiga yuboriladi: u asta sekin so'rilib, uzoq muddatgacha qonga o'tib turadi.

Streptokoklar, pnevmokoklar, stafilokoklar va boshqa kokklar qo'zg'atadigan yuqumli kasalliklar shuningdek, revmatizm va xam kasalliklarini davolash va oldini olishda ishlatiladi. Besilin suspenziyasi bevosita ishlatish oldidan tayyorlanadi. Uni kattalarga haftada bir marta 300000 yoki 600000 TB dan, yoxud har ikki haftada bir marta 1200000 Tb dan yuboriladi.

Revmatizm qaytalanishi (residiv)ning oldini olish maqsadida 6 hafta davomida haftada bir marta 20000 TB dan yuboriladi. Yaxshilab berkitilgan flakonlarda 300000, 600000, 1200000 va 2400000 TB dan qilib chiqariladi (B spiska kiradi).

Besillin-3 (Becillinum-3) oq-sarg'ish poroshok, suv bilan suspenziya hosil qiladi. Tarkibida har xil darajada erish qobiliyatiga ega bo'lgan 3 ta penitsilin tuzlari bo'lishi qonda yuqori konsentratsiyali uzoq saqlanadigan antibiotik hosil qiladi. Besillin-3 faqat muskullar orasiga yuboriladi. Katta yoshdagi odamlar uchun dozasi 300000 TB dan 3 kunda bir marta yoki 600000 TB dan 6-7 kunda bir marta tayinlansin.

Siflisni davolashda bisillin-3 maxsus instrukisiyaga asoslanib, yuqori dozalarda ishlatiladi. Flakonlarda 300000,600000,900000 va 1200000 TB dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Bisillin-5 (Bicillinum-5) oq poroshok bo'lib, suv bilan gomogen suspenziya hosil qiladi, suvdagi suspenziyalar uchun natriy xloridning izotonik eritmasida yoki 0,25-0,5% li novokain eritmasida ishlatiladi, faqat mu8skullar orasiga yuboriladi.

Penitsilinning uzoq muddat ta'sir etadigan boshqa preparatlari qachon qo'llanilsa, bisillin-5 ham shunda qo'llaniladi, ayniqsa revmatizm residivlarining oldini olishda yaxshi foydaberadi.

Kattalarga 1500000 TB dan 4 haftada bir marta, bolalarga 600000 TB dan 3 haftada bir marta, 8 yoshdan katta bolalarga 1200000 TB dan 4 haftada bir marta muskullar orasiga yuboriladi. Flakonlarda 1500000 TB dan chiqariladi.

Fenoksimetilpenitsilin (Phenoxymethylpenicillinum) suvda kam eriydigan, oq kristal poroshok. Me'da shirasi tarkibida kislota ta'sirida parchalanmaydi va yaxshi so'rilib, qonda uzoq vaqtgacha penitsilinning kerakli konsentratsiyasini ta'minlaydi. Preparat penitsilinga nisbatan mikroorganizmlar qo'zg'atgan yuqumli kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Kuniga 4-5 marta 100000-200000 TB dan ichiladi. Tabletkasi 100000 va 200000 TB dan 10 tadan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Eritromisin (Erytromycinum) hidsiz, achchiq op kristal poroshok. Suvda yomon spirtida yaxshi eriydi.

Pnevmoniya, qizilcha, saramas, sepsis, yiringli otitlar, angina chipqon jarohat infeksiyalariva boshqalarni davolashda ishlatiladi. Sutkasiga 5-6 marta, 0,1-0,25 (100000-2500000 TB dan) ichish buyuriladi. Terining yiringli kasalliklarida, kuyganda, yotoq yaralar va trofik yaralarni davolashda eritromisin mazi ishlatiladi.

Oleandromisin fosfar (Oleandromycinum phosphas) oq yoki sarg'ish tusli kristal poroshok, suvda oson eriydi. Pnevmoniya, plevrit, o'pka absessi, tonzillit, otit, osteomiyelit, streptokokk, stafilokokk, pnevmokokk, sepsislari, so'zak va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Kattalarga sutkasiga 4-6 marta 0,25 (250000 TB) bolalarga (yoshiga qarab) sutkasiga 0,02 (2000 TB)-1,5 (1500000 TB) dan ichish buyuriladi. Tabletkasi 0,125 dan 12-25 tadan qilib chiqariladi (B spiskaga kiradi)

Streptomisin sulfat (Streptomycinum sulfas)nursimon zamburug' yoki unga yaqin mikroorganizmlardan hosil bo'ladi.. Hidsiz, taxir namni shimim oladigan oq poroshok. Suvda oson eriydi, qizdirilganda parchalanadi. Mikroblarning hayot faoliyati va ko'payishini to'xtatadi. O'pka, limfa tugunlari, o'g'iz bo'shlig'i, hiqildoq, kekirdak, bronxlar, ichak siydik va tanosil organlar, suyaklar, bo'g'imlar, ko'zva terining sil kasalliklari, sil meningiti, so'zak, ko'kyutal, tulyaremiya, bruselyoz, toun kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Preparatni muskullar orasiga va turli bo'shliqlarga yuborish mumkin. Sutkalik dozasi kattalarga-0,5 dan 1,0 gacha (500000-1000000 TB) 3 yoshgacha bolalarga 0,2-0,25 (200000-2500000 TB) dan va hokazo. Streptomisin sul'fat uzoq vaqt katta dozalarda ishlatilsa, kishi kar bo'lib qolishi mumkin. Pezina propka va metal qalpoqchalar bilan yaxshilab berkitilgan flakonlarda 250000, 500000,1000000 TB dan qilib chiqariladi. Ehtiyotlik bilan saqlanadi (B spiskaga kiradi).

Xlir-kal'siy-streptomitsin kompleksi (Streptomycinum calcii chloridum) namni shimadigan (gigroskopik) oq poroshok. Suvda oson eriydi, qizdirilganda parchalanadi. Epidimik va sil meningiti, peritonit, plevrit va siydik yo'li kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Muskullar orasiga va umurtqa kanaliga (endolyumbal yo'l bilan) 75000-150000 TB dan yuboriladi. Flakonlarda 0,5 (500000 TB) dan chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Levomitsin (Laevomycetinum) suvda kam, spirtida yaxshi eriydigan oq kristal poroshok. Ich terlama (qorin tifi) va paratiflar, dezinteriya, bluselyoroz, ko'kyutal, pnevmoniya, so'zak yiringli infeksiyalar, tulyaremiya, tepkili terlama (toshmali tif) traxomani davolashda ishlatiladi. Poroshok yoki tabletkada hoida 0,5 dan ovqatdan 20-30 minut oldin ichish buyuriladi. Mazasi achchiq bo'lgani uchun bolalarga murabbo, asal, kisel, qaynatilgan guruch suvi bilan aralashtirib berish tavsiya etiladi. Levomisitinni ichgandan so'ng bemor qayta-qayta qussa, uni shamchalar hoida buyurish mumkin. Bunday hollarda uni dozasi 1,5 baravar ortiq olinadi. Levomisitini qabul qilinganda allergik reaksiyalar va og'iz, tomoq shiliq qavatlarining , tanosil organlarining ta'sirlanishi, teriga toshmalar toshishi, dermatitlar, despiptik alomatlar, qon tarkibida o'zgarishlar kuzatiladi.

Poroshok va tabletkalar 0,1; 0,25 va 0,5 dan; kapsulalarda 0,1; 0,25 va 0,5 dan ham tarkibida 0,1; 0,25; 0,5 va 0,6 levomitsitin bo'lgan shamchalar hoida, 1% li maz shaklida chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Tetrasiklin (Tetracyclinum) hidsiz, sariq kristal poroshok. Suvda kam spirtida yomon eriydi. Uzoq vaqtsaqlansa, yorug'lik ta'sirida to'q rangli bo'lib qoladi.

Tetrasiklin ichiriladi va sirtga ishlatiladi. Pnevminiya, bakterial dezinteriya vaamyoba dezinteriyasi, ko'kyutal, so'zak, bruselyoroz, tulyaremiya, tepkili terlama, surunkali xolisistik, yiringli meningit va boshqalarni davolashda hamda xirurgik bemorlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida ichish buyuriladi. Ko'zning yuqumli kasalliklari, kuygan joylar, flegmona, mastit va shunga o'xshashlarni davolashda sirtga

ishlatiladi. Ovqatdan yarim soat oldin vaundan keyin ichish kerak. Tabletkalar yoki kapsulalari 0,1-0,2 (100000-200000 TB) dan sutkasiga 4-6 marta ichiladi. Davolash kursi 7-8 kun.

Tetrasiklin ichilganda ba'zan yo'qotilishi, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, allergik reaksiyalar (qichishadigan dermatit) ro'y berishi mumkin. Bularning oldini olish maqsadida tetrasiklinni vitaminlar bilan aralashtirib qo'llash tavsiya etiladi. Bu maqsadda maxsus "Vitasiklin" (Vitacyclinum) tetrasiklin bilan vitaminlar aralashmasi hamda tetrasiklin bilan netatin aralashmasi tabletkalar holida chiqariladi. Zamburug'li kasalliklar, jigarning distrofik kasalliklar va buyraklar faoliyati buzilganda preparat buyurilmaydi.

Poroshok, tabletkalar, kapsulalarda 0,1 va 0,2 (100000-200000 TB) dan suspenziya va maz holida chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Oksetitrasiklin gidroklorid (Oxytetracyclinum hydrochloridum) achchiq mazali, sariq kristal poroshok. Ichish va muskullar orasiga yuborish uchun buyuriladi. Venaga yuborish mumkin emas.

Bitta flakondagi oksetitrasiklin (0,1 g) ni 1-2% li 5 ml novokain bilan eritib, yaxshilab chayqatib, muskullar orasiga yuboriladi. Tetrasiklin qaysi kasalliklarda ishlatilsa, oksetitrasiklinga ham shu kasalliklarda ishlatiladi. Kattalar uchun muskullar orasiga yuborish dozasi 0,05-0,1 g. (50000-100000).

0,1 g. (100000 TB) dan flakonlarda 0,1 (100000 TB) va 0,25 (250000 TB) dan tabletkalar holida va 0,25 dan usti qoplangan tabletkalar holida chiqariladi.

Oletetrin (Oleterium) bir qism oleandomisin fosfat va ikki qism tetrasiklin aralashmasidan iborat kompleks preparat. Oletetrinda oleandomisinning bakteriyalarga qarshi kurashish xususiyati bilan tetrasiklinning antibiotiklik ta'siri birga qo'shilgan. Oletetrin ichilganda tezso'rilib, ko'p organlarga biologik suyuqliklarga o'tadi.

Pnevmoniya, bronxit, anjina, brusellyoz, tulyaremiya, frunkulyoz, karbunkul, gonoreya va boshqa infeksiyon kasalliklarda ichish uchun suspenziya va tabletkalar holida tayinlanadi. Bir marta ichiladigan dozasi 0,25 (250000 TB).

Tetrasiklin gruppasidagi preparatlar ba'zan ishtaha pasayishi, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketish va terida allergik reaksiyalar hosil bo'lishiga o'xshash o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Bu gruppaga preparatlar uzoq vaqt qabul qilinsa, *kandidomikoz*, taraqqiy etish bilan bog'liq bo'lgan asoratlari paydo bo'ladi.

Sigmamisin (Sigmamicinum) ikki qism (167 mg) tetrasiklin gidroklorid bilan bir qism (83 mg) oleandomisin fosfat yoki treasetiloleandomisindan iborat kompleks preparat, ichish uchun 0,25 dan kapsulalarda muskullar orasiga yuborish uchun 0,1 dan (3,33 mg oleandomisin fosfat va 66,7 mg tetrasiklin gidroklorid) va venaga yuborish uchun 0,25-0,5 dan flakonlarda chiqariladi.

Ichish uchun kattalar bir sutkada 1-1,5 g dan og'ir holatda bir sutkada 2,0 g dan (har 6 soatdan sutkasiga 4 marta) buyuriladi. Davolash 6-7 kun ba'zan 14 kun davom etadi.

Bolalarga gavdasining vazniga qarab buyuriladi: 10 kg gacha- 0,125 g, 10 dan 15 kg gacha-0,25 g, 20 kg dan 30 kg gacha-0,5 g, 30 kg dan 40 kg gacha-0,725 g.

Preparat har 8-12 soatda 0,1 dan muskullar orasiga yuboriladi (2 ml suv yoki natriy xloridning izotonik eritmasi). Bolalarga 10-20 mg/kg hisobidan ikkiga bo'lib (har 12 soatdan keyin) yuboriladi (B spiskaga kiradi).

Zamburug' kasalliklariga qarshi ishlatiladigan antibiotiklar

Kasalliklarni davolash maqsadida antibiotiklar ishlatilganda hosil bo'ladigan jiddiy asoratlardan biri Candido turiga kiradigan parazit zamburug'larning ko'payishidan kelib chiqadigan asoratlardir. Bunda nafas olish yo'llari, hazm qilish organlari, jinsiy organlarning shiliq qavatlari va teri zararlanadi. Og'ir hollarda hamma ichki organlar zamburug' bilan zararlanadi va hatto kandidosepsis ro'y beradi.

Kandidomikozlarga qarshi kurashish uchun antibiotiklardan nistatin va levorin ishlatiladi.

Nistatin (Nistatinum) achchiq mazali, o'ziga xos hidli sariq rangdagi poroshok, suvda va spirtida erimaydi. Preparat shilimshiq pardalarda (og'iz, qin va boshqa organlarda) kandidomikoz bo'lganda davolash uchun ishlatiladi. Penitsillin, tetratsiklin gruppasi, levomitsetin neomitsin va boshqa gruppalar antibiotiklar bilan uzoq vaqt davolanganda kandidomikozning oldini olish uchun ishlatiladi.

Nistatin 250000-500000 TB dan draje va tabletkalar, mazlar, rektal va vaginal shamchalar holida chiqariladi. Kattalar 500 000 TB dan kuniga 3-4 marta yoki 250 000 TB dan kuniga 6-8 marta ichish tayinlanadi. Sutkalik dozasi 1 500 000 – 3 000 000 TB. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarga 100 000-125 000 TB dan, bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarga 250 000 dan kuniga 3-4 marta; 13 yoshdan oshgan bolalarga 1 000 000 dan 1 500 000 TB gacha kuniga 4 marta ichish tayinlanadi. Davolash kursi 10-14 kun (B spiskaga kiradi).

R e t s e p t n a m u n a s i :

Rp: Nistatini 250 000 TB
D. t. d. № 40 in tab
S. 2 tabletkadan kuniga 3-4 marta ichilsin.

Rp: Ung. Nistatini 10,0
D. S. Sirtga ishlatiladi.

Levorin (Levorinum) hidsiz va mazasiz sariq rangdagi amorf poroshok, suvda erimaydi. Candido turidagi patogen zamburug'larga ta'sir etadi. Bir mg da 250000 TB bo'ladi.

Levorinni kattalar tabletka va kapsula holida 500000 TB dan 10-12 kun davomida 2-4 marta ichishi tayinlanadi.

Teri burmalari andido zamburug'lari bilan zararlanganda, barmoq oralaridagi eroziyalarda levorin mazi ishlatiladi. Bunda zararlangan joyga 10-15 kun davomida kuniga 1-2 marta levorin mazidan surtiladi.

Levorin 500000 TB dan tabletka, kapsula va maz, (1 grammda 500 000 TB) holida chiqariladi.

Rp:Levorini 500 000 TB
D.t.d. № 40 in tab.
S.Bir tabletkadan kuniga 3-4 marta ichilsin.

R e t s e p t n a m u n a s i :

Rp: Sol Hydrogenii peroxydiata dilutae 50,0
D.S. 1 osh qoshig'ini 1 stakan suvga aralashtirib og'iz chayilsin.

Rp: Althacridini 0,2
Aq. Destillatae 400,0
M.D.S. Jarohatlarni yuvish uchun.
Rp:Hydrarqyri 0,2
Acidi carbonici 4,0

Vaselinii aa 50,0
M.f. unguyentum
D.S. Temiratkida surtish uchun maz.

Rp:Sol. Collargoli 2%-200,0
D.S. spresevaniye qilish uchun

Rp:Stpertomiycini sulfatis 100000
D.t.d.№6 in amp.
S.200 000 TB dan sutkasiga 4 marta muskullar orasiga

Rp:Becillini 600 000 TB
D.t.d. №4 in amp;
S. Bir oy davomida haftasiga bir marta bir ampuladan ishlatilsin.

Bu gruppaga dezinfeksiyalovchi antiseptik va ximioterapevtik moddalar kiradi. Ular ishlatilishiga qarab bakteriostatik (mikroblar rivojlanishini to'xtatadigan) va bakteritsid (mikroblarni nobud qiladigan) ta'sir ko'rsatadi. Dezinfeksiyalovchi moddalar ta'sirida mikroblar nobud bo'ladi, antiseptik moddalar esa mikroorganizmlarning rivojlanishiga yo'l quymaydi. Ximioterapivtik moddalar ayrim mikroblarga tanlab ta'sir ko'rsatadi va ba'zi yuqumli kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Dezinfeksiyalovchi moddalar antiseptik preparatlarga quyidagilar kiradi.

Xlor ohak (Calcium hypochlorokum) oqish, ba'zan kulrang yoki sarg'ish tusli, xlor hidi kelib turadigan, suvda bir oz eriydigan poroshok; 0,2-5% li eritmasi binolar, kir o'ralar va boshqalarni dezinfeksiyalash uchun ishlatiladi. Quruq xlorli ohak bemor chiqindilari (balg'ami, siydigi, najasi)ni dezinfeksiyalash uchun,

shuningdek ipret va lyuizit tipidagi turg'un jangovor zahorlovchi moddalarni degazatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Yod nastroykasi (Tinctura iodum) yodning spirtidagi 5% li eritmasi. Xirurgiyada sirtga ishlartiladigan antisiptik modda sifatida keng foydalaniladi. Bundan tashqari u mahalliy ta'sir ko'rsatib, tomirlarni kengaytiradi va yallig'lanish manbalarining so'rilib ketishiga yordam beradi. Bir oz kuydiradigan ta'sir etishi sababli kapilyarlardan qon ketganda qon to'xtovchi modda sifatida ham ishlatiladi. Operatsiya qilinadigan joylar, teridagi jarohatlarning chekkalari, og'riyotgan bo'g'imlar, terining qo'tir, temiratki va boshqa parazit kasalliklardan zararlangan joylarga surtiladi.

Diotsit (Diocidum) suvda eriydigan oq poroshok. Turli bakteriyalarga nisbatan kuchli bakterisid. Diotsid sterillovchi vosita sifatida operatsiya oldidan xirurg qo'lini yuvish, 1:500 nisbatdagi eritmasi ba'zi apparat (suniy qon aylanish apparati) va xirurgiya asboblari sovuq holda sterillash uchun ishlatiladi.

Xloramin (Chloraminum) o'ziga xos hidli oq poroshok, 0,5% li eritmasi qo'l va bemor foydalangan buyumlarni dezinfiksiyalash, ko'zni yuvish, jarohatlar, yara va kovaklarni chayish hamda badbo'y hidni yo'qotish uchun ishlatiladi. 2-5% li eritmasi oksidlovchi modda sifatida terida yara hosol qiladigan zaharlovchi mpoddalar (iprit, lyuzit)ni zararsizlantirish uchun ishlatiladi.

Kaliy permanganat (Kalii permanganas) to'q binafsha rangli, metadek yaltiroq kristall. Suvda eritilganda konsentrasiyasiga qarab, malina rangidan tortib, to'q qizil ranggacha eritma hosil qiladi. 0,01-0,1% li ya'ni 1:10000 va 1:1000 nisbatdagi eritmaları dezinfiksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi modda sifatida jarohatlarniyuvish, og'iz va tomoqni chayish, zaharlanish ro'y berganda oshqozonni yuvish uchun ishlatiladi. 2-5% li eritmasi bir oz kuydiradigan ta'sir ko'rsatish sababli kuygan joylar va yara-chaqalarga surtiladi.

Vodorod peroksid (Hydrogenii peroxydi diluta) ning suvdagi eritmasi tarkibida 3% vodorod peroksid bo'ladi. Uning konsentratsiyalangan eritmasi- pergidrol tarkibida 30% vodorod peroksid bo'ladi. Vodorod peroksid eritmasi shiliq qavatlar yallig'langanda (stomatitlar, anginada) chayish va surtish, shuningdek yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Shu maqsadda uning 3% li eritmasidan 1choy yoki osh qoshig'ida olib, bir stakan suvda suyultiriladi.

Briliant yashili (Viride nitns) yaltiroq- tilla rang poroshok. Suvda (1:50) va spirtida yomon eriydi. Eritmalari to'q yashil rangli. Spirt yoki suvdagi 0,1-2% li eritmasi infeksiya tushgan jarohatlar, kuygan joylar va terining yiringli va kasalliklarni davolash antiseptik modda sifatida ishlatiladi.

Nivokov antiseptik siyuqligi tarkibida: 1qism tanin, 0,2 qism brilliant yashili, 0,2 qism brilliant yashili, 0,2 qism 95% li spirt, 0,5 qism kanakunjut moyi va 20 qism kallodiy bo'ladi. Bu quyuq shilimshiq modda bo'lib, tez qurishi natijasida terida elastik plyonka (parda) hosil qiladi. Teridagi mayda jarohatlarni tozalashda antesiptik vosita sifatida ishlatiladi. Jarohat atrofidagi terini tozalab, 9masalan, moylar, benzin bilan ifloslangan bolsa), keyin jarohat usti va atrofidagi teriga novikov siyuqligi surtiladi. Kuchli qon oqishda va yaraga infeksiya tushgan bo'lsa bu siyuqlikni ishatish mumkin emas. U tez alanganadigan bo'ladi. Shuning uchun ehtitot bo'lib ishlatish kerak. Flakonlarda 20ml dan chiqariladi.

Efakridin (Aethacridini lactas), **rivanol** (Rivalonum) sariq rangli, ta'mi achchiq, hidsiz mayda kristal poroshok. Sovuq suvda qiyin (1:50), issiq suvda osonroq, spirtida yomon (1:110) eriydi. Suvdagi eritmaları tez parchalanib ketadi, shu sababda faqat yangi tayyorlangan eritmaları ishlatiladi. Xirurgiya, ginekologiya, urologiya, oftolmologiya, dermatologiya va boshqalarda profilaktika va davolash maqsadida antiseptik modda sifatida ishlatiladi. Toza va infeksiya tushgan jarohatlarni davolashda 0,05% li (1:2000), 0,1% li (1:1000), 0,2% li (1: 500) eritmaları ishlatiladi.

Chipqon apsessalarini davolashda 0,1-0,2% li eritmasi ho'llab qo'yiladi, tampon qilib surtiladi. Og'iz, tomoq, burun shilliq qavbatlari yallig'langanda 0,1% li rirtmasi bilan chayiladi yoki 1% li erirtmasi shilliq qavalarga surtiladi. Teri kasalliklarini davolashda 1-2,5% li mazi va 5-10% li pastalari buyuriladi. Poroshok va tabletkasi 0,1 dan cghiqariladi (B spiska).

Furatsilin (Furagilinum) sariq, mayda kristall poeroshok. Suvda, spirt va ishqorlarda yomon eriydi, (1:4200), ta'mi bir oz taxir. Suvdagi 0,02% li (1:5000) eritmasi yiringli jarohatlar, yotoq yaralar, I-II darajali qo'yishda, anaerob infeksiyada, jarohatlarni yuvish uchun ishlatiladi. O'rta quloq surunkali, yiringli yallig'langanda spirtidagi eritmasi (1:500) tomiziladi. Poroshok va tabletkada holida 0,1 dan hamda vazilindagi 0,2% li mazi chiqariladi.

Kollargol (Kollargolum), **koloidal kumush**. Ko'kimtir-qora, metal kabi yaltiroq, suvda erib kollaid eritma hosol qiladigan mayda plastinkalar. Tarkibida 70% kumush bor.

0,2-1% li eritmasi yiringli jarohatlarni, 1-2% li eritmasi qovuqni (surunkali yallig'langanda) chayish uchun ishlatiladi. Yiringli kon'yunktivitni davolashda 2-3-5% li eritmaları ko'z tomchisi sifatida ishlatiladi. Poroshok holida chiqariladi (B spiskaga kiradi).

Kumush nitrat (Argentum nitras) suvda yaxshi eriydigan rangsiz, hidsiz plastinka shakldagi tiniq kristallar. Yorug'lik ta'sirida qorayadi (A spiskaga kiradi).

Kumush nitratning kuchsiz eritmalari burushtiradigan va yallig'lanishga qarshi ta'sir etsa, kuchli eritmalari kuyduruvchi ta'sir ko'rsatadi. Eroziyalar, yorilgan joylar, yaralarni o'tkir konyunktivitni davolashda ishlatiladi.

2-5-10% li suvli eritma holida 1-2% li maz va lyapiz qalamchalari shaklida ishlatiladi. Bundan tashqari bleonoreyaning oldini olish uchun chaqaloqlarning ko'ziga tomiziladi.

Bakterisid qog'oz kumush nitrat va kumush xlorid bilan tuyilgan serkovak qog'oz bo'lib, kichik yaralarni, shilingan joylarni va II- darajali kuygan joylarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi. Buning uchun bakterisid qog'ozni distillangan yoki oddiy suvda ho'llab yara ustiga yopiladi, ustidan yupqa qavat paxta qo'yib, bint bilan bog'lanadi.

Bakterisid qog'oz kattlagi 10x14 sm dan qilib konvertga solingan holda chiqariladi. Fosfor yoki qora-qo'ng'ir shishalarda, dala va uy sharoitida fabrika upakovkasida saqlanadi.

Simop dixlorid (Hydrargyri dichloridum), **sulema** og'ir oq poroshok yoki suvda eriydigan kristall. Kuchli antiseptik ta'sir ko'rsatuvchi, juda zaharli modda. 0,1-0,2% li eritmasi binolarni dizinfektsiyalash uchun va antiseptik vosita sifatida sirtga ishlatiladi. Pushti rang tabletkalar holida chiqariladi. Sumela xirurgik asboblarni dizinfektsiyalash uchun ishlatilmaydi, chunki u metallar bilan amal'gama hosil qiladi (A spiskaga kiradi).

Sulfanilamid preparatlar

Bu gruppaga mikroblarni rivojlanishdan to'xtatib, bakteriostatik ta'sir ko'rsatadigan moddalar kiradi. Ular turli mikroblar ko'rsatadigan sepsis, saramas (streptokoklar paydo qiladi), meningit (meningokoklar qo'zg'atadi), pnevmokoklar qo'zg'atadigan zotiljam, stafilokoklar keltirib chiqaradigan chipqonni va infeksiya tushgan yaralarni davolashda ishlatiladi. Bu gruppaga kiradigan ba'zi preparatlar bakteriyal dezinteriya va boshqa ichak kasalliklarini ham davolashda foyda beradi. Sulfanilamid preparatlarning dozasi oshirib yuborilsa yoki noto'g'ri buyurilsa, bosh og'rig'i, umumiy darmonsizlik, ko'ngil aynish, qusish, isitma ko'tarilishi, teriga toshmalar toshishi kabi noxush alomatlar ro'y beradi. Bundan tashqari, ular noto'g'ri ishlaganda, mikroblar o'rganib qolib, preparat ta'sir etmay qo'yishi mumkin.

Sulfanilamid preparatlar bilan davolash vaqtida ko'p miqdorda ishqoriy ichimlik (2% li soda eritmasi yoki barjomi) ichish tavsiya etiladi.

Oq streptotsid (streptokidum album) hidsiz oq kristal poroshok. Angina, saramas va koklar qo'zg'atadigab boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Sepma, maz va emulsiyalar holida sirtga ishlatiladi.

Poroshok va tabletkalar holida 0,3 va 0,5-1,0 dan chiqariladi. Kattalar uchun bir martalik yuqori dozasi-2,0 sutkalik dozasi-7,0 (B spiskaga kiradi).

Sulfademizin (Sulfademizinum) oq yoki och sariq poroshok. O'pka yallig'langanda, streptokok qo'zg'atgan sepsisda, jarohatlanganda, qovuq yallig'langanda ishlatiladi. Tez so'riladi.

Poroshok va tabletkalar holida 0,5 dan chiqariladi. Kattalar uchun bir martalik yuqori dozasi-2,0, sutkalik dozasi-7,0. Davolash vaqtida ishqoriy ichimliklar ichib turish kerak (B spiskaga kiradi).

Norsulfazol (Norsulfazolum) hidsiz, oq kristal poroshok. O'pka yallig'langanda, seribrospinal meningitda, so'zakda, strafilokokk, streptokokk qo'zg'atadigan sepsisda va boshqa yuqumli kasalliklarda ishlatiladi. Poroshok va tabletkalar holida 0,25-0,5 dan chiqariladi. Kattalar uchun bir martalik yuqori dozasi-2,0 sutkalik dozasi-7,0. Dori ichgach ketidan 1 stakan suv (yarim choy qoshiq ichimlik soda qo'shilgan) yoki 1 stakan borjomi ichib yuboriladi (B spiskaga kiradi).

Ftalazol (Phtalazolum) oq yoki och sarg'ish tusli poroshok. O'tkir va surunkali dezinteriya, kolit, gastroenteritni davolashda, operatsiyadan keyin qoladigan yiringli asoratlarni oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Poroshok va tabletkalar holida 0,5 dan chiqariladi. Kattalar uchun bir martalik yuqori dozasi-2,0. Sutkalik dozasi-7,0. Bolalarga kamroq dozalarda buyuriladi (B spiskaga kiradi).

Sulfademintoksid (Sulfademinoxinum) hidsiz, oq kristal poroshok, suvda erimaydi, spirtida kam eriydi. Suv qo'shilgan xlorid kislotada va ishqorlar eritmasida kuchsiz eriydi, uzoq vaqt ta'sir qiladigan sulfanilamid preparatlar gruppasiga kiradi. Bakteriyalarga qarshi ta'sir etishiga qarab, sulfakidirozinga yaqin turadi. Grammusbat va grammanfiy bakteriyalarga qarshi ishlatilganda yaxshi natija beradi.

Sulfademintoksid pnevmokok streptokokk, stafilokokk, ichak tayoqchasi, fredlender tayoqchasiga, dezinteriya keltirib chiqaruvchi mikroblarga, traxoma virusiga ta'sir etadi (B spiskaga kiradi).

Narriy sul'fapiridazin (Sulfapiridazinum natrium) oq yoki yashil sarg'ish rangdagi kristal poroshok. Suvda yaxshi, spirta esa yomon eriydi, bir oz gikroskopik.

Traxoma kasalligida, mahalliy yiringli infeksiyalarda yarani yuvish uchun bog'lam va tamponlar (3-5-10% li eritmada ho'llangan) holida ishlatiladi, zarur bolgan taqdirda eritmani yara bo'shlig'iga yuborish mumkin. O'pka va bronxlarda surunkali yiringli protses yuborganda 10% li eritmasi bilan (7-10 kun davomida 5 ml dan kuniga ikki marta) ingalyatsiya qilish tayinlansin. Mahalliy davolashni sulfapiridazinni ichish bilan birga olib borish mumkin.

Sul'fapiridazin eritmalar tayyorlash uchun har xil rasfasovkadagi poroshok holida (traxomani davolash uchun 10% li eritmasi 7% li polivinil spirt eritmasida) chiqariladi. Operatsiyalardan keyin yaraga infeksiyalar tushishni oldini olish uchun distillangan suvda, natriy xloridning izotonikeritmasida yoki polivinil spirt eritmasida tayyorlangan 3-5-10% li eritmasi ishlatiladi.

Ko'zning yuqumli kasalliklarini (bakterial konyunktivitlar, blefaritlar, keratitlar va boshqalarni) natriy sulfapiridazin 5-5,5 mg dan yupqa parda (sariq oval shakldagi yupqa plastinkalar holida chiqariladi).

Bu yupqa parda pinsit yordamida ko'zning pastki qovog'iga quyiladi va eritmaga nisbatan uzoqroq ta'sir etadi va yaxshi foyda beradi. Yupqa parda 1 sutkada 1-2 marta quyiladi. Plastmassadan ishlangan pinallarda va 30 donadan qilib flakonlarda chiqariladi (B spiskaga kiradi).